Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir". Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan qararlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1875-soni Qaroridir . Ushbu qarorga muvofiq chet tillarini , asosan , ingliz tilini boshlang'ich sinfdan boshlab o'rgatish, ularni chet tillarini o'rgatishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish uchun barcha umumta'lim maktablarda 1-sinfdan boshlab ingliz tili darslarini turli xil qiziqarli o'yinlar tarzida o'qitish va shu bilan birga o'quvchilarning og'zaki nutqini ham rivojlantirish, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitishni zamonaviy, innovatsion usullar orqali o'tish bosqichma-bosqich boshlandi.

So'nggi paytlarda ingliz tilini o'rganadigan har qanday yoshdagi odamlar sonijuda ko'paymoqda. Buning sababi, hayot jarayonida ingliz tilini bilmasdan yashash qiyinlashib bormoqda. Ammo til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq. Hatto, olimlar bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtirishni isbotlashgan. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko'pligi va o'rgangan ma'lumotlarni tez xotirada saqlashi buning asosiy sabablaridandir.

MUHOKAMA

Xitoy ixtirochilaridan biri Masaru Ibuka mashhur "Ushdan keyin juda kech" kitobida yozganidek: "...bolaning miyasi cheksiz miqdordagi ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin...". Yana shunga e'tibor qaratish kerakki, 6-7 yoshdagi bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushinib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun ham ingliz tilini o'rganayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga tilni o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani charchatishi va til o'rganishga bo'lgan qiziqishini susaytirip qo'yishi mumkin. Chunki boshlang'ich sinfdagi o'quvchilarga chet tilini o'rgatish qiyin shu bilan birga mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi . Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi innovatsion metodlardan foydalanish mumkin :

- Ko'rish orqali eslab qolish . Ma'lumki, yosh bolalar eshitgan ma'lumotlaridan ko'ra, ko'proq ko'rgan predmetlarini eslab qoladi. Shunday ekan , darsni turli xil

ko'rgazmali qurollar, plakatlar orqali, ko'zga ko'rinadigan va kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan narsa, buyumlarga yozish orqali yangi so'zlarni o'rgatish va o'rgangan yangi so'zlari ishtirokida gaplar tuzish . Masalan, kitob (book), stol (table), doska (blackboard) , ruchka (pen), oyna (window) va shu kabilarga yozish. Kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan bunday narsa-buyumlar ko'zga doimo tushib turishi va doimo qo'llanishi bois, bola bu so'zlarni ixtiyorsiz tarzda o'rganadi .

- Qo'shiq va she'rlar orqali tushinish yoki eslab qolish qiyin bo'lgan so'zlarni musiqaga solib kuylash. Bunda yangi so'zlarni eslab qolish bilan birga, bolaning og'zaki nutqi ham rivojlanadi. Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin .

- TO raqobatdosh grammatika va so'z boyligini o'zlashtirishga yordam beradigan o'yinlarning aksariyatini o'z ichiga oladi . Bunda bolalar o'qituvchi berganturli xil topshiriqlarni bajaradi . Natijada o'quvchilar orasida raqobat vujudga kelib, til o'rganishga bo'lgan qiziqishi yanada oshadi. Zero, Xitoy mutafakkirlari aytganidek: " Insonning barcha qiziqishlari raqobat orqali vujudga keladi".


- Aralash texnika bu yerda biz ixtiyoriy ravishda turli xil texnikalarni birlashtira olamiz. Masalan, bunda bolalar o'yin o'ynashi, qo'shiqlar aytishi, rasm chizishi, turli xil harakatlar orqali yangi so'zlarni ko'rsatib berishi mumkin . Texnikaning afzalligi xilma-xillikda. Bunda o'quvchi faqat bitta narsa orqali cheklanib qolmaydi.

- Multfilmlar orqali o'rgatish. Ma'lumki, bolalar turli xil multfilmlarni ko'rishga qiziqadi. Ingliz tilidagi multfilmlarni ko'rish jarayonida esa, multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganishlari uchun samarali yo'l.

- Qiziqarli o'yinlar orqali o'rganish; Ingliz tili fanini o'qitishda turli xil o'yinlar orqali o'rgatishning o'rni beqiyosdir. Dars davomida har xil o'yinlar o'ynatib turish sinfda fanni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshiradi, faol bo'lmagan o'quvchilarni ham darslarda yaxshiroq qatnashishga undaydi. Quyidagi o'yinlar so'zimizga misol bo'la oladi.

- "Quvnoq topishmoqlar"(Merry Riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar.

- "Pantomima" (pantomime) . Bunda o'qituvchi o'quvchilarga biron bir so'zni aytadi va o'quvchi uni ko'rsatadi. Qolgan o'quvchilar esa so'zni topib, inglizcha nomini aytishi kerak bo'ladi .



- Sezgi a'zolar orqali o'rganish (sabzavot, mevalar , oziq-ovqatlarni tatib ko'rish, turli xil buyumlarni ushlab ko'rish, gullarni hidlab ko'rish). Ushbu yangi metodni o'rganishdan oldin bir amaliyotchi psixologning fikrlarini keltirish kerak: "Bolalarning esida biror narsaning mahkam o'rtnashib qolishini xohlovchi pedagog bola sezgi organlarining mumkin qadar ko'prog'ini ko'zi, qulog'i, tovush organi, muskulsezgisi va hatto, hidlash va ta'm bilish organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishga harakat qilishi kerak".

NATIJA


Darhaqiqat, sezgi a'zolar orqali til o'rganish boshqa usullarga qaraganda foydali va samarali hisoblanadi . Masalan, o'quvchi birgina olmani tatib ko'rish jarayonida uning rangi, ta'mi, hajmi, hidi qanday ekanligini biladi va uning inglizcha nomini ham aytadi. Natijada esa, o'qituvchi bolalardan ranglarning inglizcha nomini so'rab qolsa, bolalar darrov meva yegan paytini eslaydi. Demak, bunday usullardan foydalanish o'quvchining ma'lumotlarni uzoq muddatda xotirasida saqlab qolishga yordam beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishni majburiyat sifatida emas, aksincha, qiziqarli o'yinlar va innovatsion metodlardan foydalangan holda olib borishi , ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shunday ekan, ta'lim tizimi ham o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shahsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqish bilan o'z hissamizni qo'shishimiz mumkin .

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori.
2. Turdaliyeva G.N "Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar"// 2020 .
3. Bekmuratova U.B . " Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" // Toshkent 2012.
4. Toliboboeva, S. J. (2020). TEACHING INTERCULTURAL COMMUNICATION IN ENGLISH. *Science and Education*, 1(Special Issue 2).
5. Толибобоева, Ш. (2020). Ingliz tilini o'qitishdagi zamonaviy ta'lim texnologiyalari. *Young Scientist*, 19(309), 581-582.



6. Juldasheva, N. N. (2020). Хорижий тилларни ўқитишда ахборот технологияларва инновацион методларнинг ўрни. *Молодой ученый*, (12), 332-333.

7. Ashirbaeva, A. (2020). POSITIVE TRAITS OF TEACHING LANGUAGE THROUGH LITERATURE. *ScienceandEducation*, 1(SpecialIssue 2).

8. Umirova, Z. (2020). IMPORTANCE OF LEARNING FOREIGN LANGUAGES.

International Scientific Conference of Students and Young Scientists "FARABI ALEMI".

**MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI O'QITISH
METODIKASI**

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Pedagogika fakulteti Boshlang'ich talim
yo'nalishi 5-BT-22 guruh talabasi

Toshtemirova Mohinur Akram qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Filologiya fakulteti ingliz fani o'qituvchisi

Qayumova Mohinur Murodullayevna

[Tel:+998904112628](tel:+998904112628)

[Tel:+998902959933](tel:+998902959933)

mohinurqayumova10@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limdagi bolalarga ingliz tili o'qitishning zarurat ekanligi asoslanib, chet tilini o'qitish boshlang'ich ta'lim yoshidan boshlab amalga oshirishning afzalliklari haqida fikr yuritilgan bo'lib, boshlang'ich ta'lim yoshdagi bolalarga chet tili o'qitishning eng zamonaviy va samarali usullari sifatida o'yin texnologiyasi, axborot-kommunikatsiya vositalari va multfilmlardan foydalanish imkoniyatlari haqidagi mulohazalar keltirilgan. Bu esa, o'z navbatida, tegishli chet til o'qitish texnologiyasini qo'llashni taqozo etadi. Bundan tashqari ushbu maqolada maktab o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatish usullari, ularni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: pedagog, xorijiy tillar, o'qituvchi mas'uliyati, 3 4 5 6 so'z metodi, yashil ruchka, 80/20 usuli, texnologiya, multfilm, kommunikatsiya, Shexter usuli.

Abstract. Based on the necessity of teaching English to children in primary education, this article discusses the advantages of teaching a foreign language from the age of primary education, and the most modern and effective method of teaching a foreign language to children of primary education age. comments on possibilities of using game technology, information, and communication tools, and cartoons are presented as methods. This, in turn, requires the use of appropriate foreign language teaching technology. In addition, this article talks about ways to teach English to schoolchildren, to increase their interest in the lesson

Keywords: pedagogue, foreign languages, teacher's responsibility, 3 4 5 6 word method, green pen, 80/20 method, technology, cartoon, communication, Schechter's method.

KIRISH

Soha mutaxassislarining fikricha chet tilini o'qitishda ko'p yuzaga kelayotgan muammolarning asosiy sababi o'rganuvchilarning yoshi bilan bog'liq hisoblanadi. Ularning fikricha ingliz tilini o'rganishni ancha ertaroq boshlashni tavsiya etadi. Bundan tashqari hozirgi kunda ingliz tili eng rivojlangan tillar sirasiga kirmoqda. Ingliz tili insonning har bir bosayotgan qadami uchun kerak bo'lmoqda. O'zbekistondagi barcha oliy yurtlarda hamda maktablarda ingliz tili fani o'qitila boshladi. Ingliz tilini ko'plab insonlar, ayniqsa, yoshlar qiziqib o'rganishmoqda. O'qituvchi orqali fan seviladi deganlaridek, fanlarning qiziqarli bo'lishi, dars jarayoni samarali o'tishi, bularning barchasi albatta o'qituvchiga va uning o'qitish metodikasiga bog'liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, chet tillarini o'rganish rivojlandi va yoshlar uchun ko'plab kitoblar sotib olindi. Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun imkoniyatlar tillarni mukammal bilishning ahamiyatini oshirishning hojati yo'qdir. Hozirgi kunda barcha bilim yurtlarida ingliz tili fani darslik sifatida kiritildi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'qituvchi orqali fan seviladi. Bunda o'qituvchi o'z darsiga mas'uliyatli bo'lishlari kerak. Ya'ni darsga kirishda yaxshi kayfiyat bilan kirishi va o'quvchilarga mehribon bo'lishi kerak. Bundan tashqari o'quvchilarni darsga qiziqtirish va ingliz tilini yaxshi o'rganishlari uchun ko'plab metodikalar mavjud. Masalan, barchamizga ma'lumki, pedagoglar o'quvchi xatolarini qizil ruchkada tekshirishadi. Aksincha, o'qituvchilar yashil ruchkada ularning to'g'ri yozilgan so'zlarini tekshirishsa va ularni rag'batlantirsa, ya'ni e'tiborni kamchilikka emas yutuqqa qaratsa, albatta, o'quvchida o'ziga bo'lgan ishonch va bu fanga bo'lgan qiziqish ortadi. Bundan tashqari yana, o'quvchilar fikrini jamlashi uchun 3 4 5 6 metodikasi ham qo'l keladi. Ya'ni, dars boshida doskaga 3 4 5 6 ta katakli jadval chiziladi hamda ulardan o'tgan dars yodlagan so'zlarini shu katak ichiga joylashtirish so'raladi. Albatta, bu metodika o'quvchilar diqqatini jamlashga va o'tgan mavzuni eslab olishga yordam beradi. Yana bir metodikalardan biri bu 80/20 usuli. Bu usul pedagoglar uchun judayam foydali. Bu o'quvchilarni to'g'ri yo'naltirishga va bilimini oshirishga yordam beradi. Misol uchun, tadbirkorlarda bir gap bor: mijoz 20 foiz ,tadbirkor 80 foiz gapirsa, bunda tadbirkor 30 foiz natijaga erishadi, aksincha, tadbirkor 20 foiz, mijoz esa 80 foiz gapirsa bunda tadbirkor 100 foiz natijaga erishadi. Bu yerda o'qituvchi 80 foiz o'quvchilarning faolligini oshirishi, 20 foizi esa ularni yo'naltirib turishini bildirmoqda. Shunda 100 foiz o'quvchi darsni yaxshi

o'zlashtiradi Hatto K.D.Ushinskiy ham shunday deb yozgan edi: "Bola biz bir necha yil ichida o'rgana olmaydigan darajada chet tilini bir necha oyda o'rganadi". Boshlang'ich ta'lim ta'lim yoshidagi bolalarga chet tilini o'qitishda quyidagi o'yinlardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Vaziyatli o'yinlar;
2. Raqobatbardosh o'yinlar;
3. Ritmik musiqiy o'yinlar;
4. Badiiy-ijodiy o'yinlar.

Vaziyatli o'yinlar - u yoki bu sabablarga ko'ra aloqa vaziyatlarini simulyatsiya qiladigan rol o'ynash o'yinlarini o'z ichiga oladi. Rol o'ynash bu bolalarning muayyan rollarini bajarish, turli xil hayotiy vaziyatlar o'ynaladigan o'yin faoliyati hisoblanadi. Masalan, sotuvchi - xaridor, shifokor -bemor va boshqalar. Raqobatbardosh o'yinlar - lug'at va savodxonlikni targ'ib qiluvchi ko'pgina o'yinlarni o'z ichiga oladi. Ritmik musiqiy o'yinlar - bu har qanday an'anaviy o'yinlardan farqli ravishda , masalan, sheriklar tanlovi bilan raqs tushadigan o'yinlar bo'lib, bu muloqot qobiliyatlarini o'zlashtirishga emas, balki nutqning fonetik jihatlarini yaxshilashga yordam beradigan o'yinlar sirasiga kiradi. Badiiy - ijodiy o'yinlar - bunday o'yinlar bolaning badiiy ijod chegarasida turgan faoliyat turi bo'lib, bunday o'yinlar orqali bolalarning ichki dunyosini kashf qilish mumkin. Bunday metodikalardan tashqari multfilmlar ham bolalar uchun ingliz tilini o'rganishda eng yaxshi yordamchi hisoblanadi. Bolalar multfilmlarni yaxshi ko'radilar va ularni ketma-ket tomosha qilish ularga pozitiv kayfiyat bag'ishlaydi. Shuning uchun ingliz tilidagi multfilmlar bir vaqtning o'zida bolalarning pozitiv-kommunikativ sifatlarini shakllantirish bilan birga chet tilini o'rgatishning ko'plab muammolarini hal qilishga yordam beradi.

Boshlang'ich ta'lim ta'limda ingliz tilini o'rganish "Shexter" usuli, ya'ni "nazariydan amaliyotga" klassik modelga emas, balki teskari, tabiiyroq idrok tizimiga asoslanadi. Bunda bolalarga ona tilimizni o'rgatishimiz juda qulay. Yosh bolalar qanday gapirishni bilmaydilar. O'qituvchilar tomonidan kerakli jumlar va nutq qismlarini qurish qoidalarini tushuntirilib, didaktik o'yinlar orqali ingliz tilini zamonaviy usullarda o'rgatiladi. Ingliz tilining ushbu texnikasi uch bosqichdan iborat: birinchidan so'zlar va iboralar, ikkinchi va uchinchi bosqichda grammatik va sintaktik tuzilmalardan foydalanish samaradorligi pedagog va psixologlar nuqtai nazaridan eng muvaffaqiyatlilardan biri hisoblanadi. Bu usulning boshidanoq bolalar bilan ingliz tilida ishlashning ma'lum bir uslubini rivojlantirish, muloqotning eng odatiy holatlariga mos keladigan so'zlardan foydalanish kerak. Bunday so'zlar (salomlashish, xayrlashish, qisqa mashqlar, ingliz tilida qabul qilingan xushmuomalalik formulalaridan foydalanish) bolalarga chet tili aloqasini

o'rnatishga imkon beradi, ingliz tiliga o'tishni osonlashtiradi, bolalarga dars boshlanganligini, endi darsning ma'lum bir bosqichi o'tishini ko'rsatadi. Boshlang'ich ta'lim yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishning o'ziga xos xususiyati shundaki, u shunchaki stolda o'tirib, kitob va daftarlarni varaqlamaydi. Jarayon zerikarli bo'lmasligi va bolalar o'zlari bilimga intilishlari kerak. Bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin.

XULOSA.

Darslar qanchalik qiziq bo'lsa, o'quvchi darsga emas, xuddiki dam olishga kelgandek u fanni maroq bilan o'rganadi. Shu sababli, o'qituvchilar bu metodlardan foydalanishlari lozim. Shunday qilib boshlang'ich ta'lim yoshdagi bolalarga chet tilini o'qitishda o'yin texnologiyasidan foydalanish va axborot - kommunikatsiya usullaridan foydalanish bolalarning proksimal rivojlanish zonasiga yo'naltirilgan bo'lib, pedagogik maqsadni bola uchun jozibali faoliyat motivi bilan birlashtiradi. Boshlang'ich ta'lim yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatishda yoshiga mos ijodiy va didaktik o'yinlar va ochiq mashg'ulotlar bilan ularning shaxsiy kamolotini zamonaviy usullar asosida shakillantirish mumkin. Ta'limda har bir mashg'ulotning yangicha axborot texnologiyalari va kompyuter qurilmalaridan muvaffaqiyatli foydalanish, ko'rgazmali materiallardan bolalar uchun foydali maxsulotlarni tadbiq qilish va natijasini mustahkamlash o'quvchi bilimni mustahkamlash uchun eng zo'r usul hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muminova F.M. "Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish,,
2. "O'QITUVCHI" NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI . Toshkent 2012.
3. David A. J, Eggen, P Kauchak. O'qitish usullari. Talabalarning bilim olishini targ'ib qilish[M] 2002.
4. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi.-T.:O'qituvchi,2016 y.
5. Yo'ldosheva D.A. Kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishning innovatsion usullari. 2022.

Veb-sayt:

1. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES google web – site.
2. "Tafakkur manzili" internet web-sahifasi.

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING INNOVATSION
USULLARI**

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi 2- bosqich talabasi

Jaylovova Dildora

Ilmiy rahbar: Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz
tili fani o'qituvchisi

Turdialiyeva Shahnoza

Tel: +(998) 90 410 1224

Email: jaylovovadildora82@gmail.com

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda tez va oson o'rganishini ta'minlash uchun ingliz tili o'qitishning samarali, zamonaviy va innovatsion metodlari va usullari haqida to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: chet tili, aralash texnika, qiziqarli o'yinlar, boshlang'ich sinflar, zamonaviy innovatsion metodlar, pantomima.

ABSTRACT This article presents productive, modern and innovative methods of teaching English, in order to get learners more interested in learning English in primary classes.

Keywords: foreign languages, mixed technique, interesting games, primary classes, modern and innovative methods, pantomime.

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, yoshlarning chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishi oshdi va davlatimiz tomonidan til o'rganishga ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayniqsa yosh avlodni har tomonlama barkamol jahon bilan yuzma yuz chiqa oladigan qilib tarbiyalash hozirgi kunning eng muhim rejalaridan biridir. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganidek: "Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham, albatta, bejiz emas.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini



baholashning hojati yo'qdir". Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1875-soni Qaroridir. Ushbu qarorga muvofiq chet tillarini, asosan, ingliz tilini boshlang'ich sinfdan boshlab o'rgatish, ularni chet tillarini o'rgatishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish uchun barcha umumta'lim maktablarda 1-sinfdan boshlab ingliz tili darslarini turli xil qiziqarli o'yinlar tarzida o'qitish va shu bilan birga o'quvchilarning og'zaki nutqini ham rivojlantirish, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitishni zamonaviy, innovatsion usullar orqali o'tish bosqichma-bosqich boshlandi. So'nggi paytlarda ingliz tilini o'rganadigan har qanday yoshdagi odamlar soni juda ko'paymoqda. Buning sababi, hayot jarayonida ingliz tilini bilmasdan yashash qiyinlashib bormoqda. Ammo til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq. Hatto, olimlar bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtirishni isbotlashgan.

MUHOKAMA

Xitoy ixtirochilaridan biri Masaru Ibuka mashhur "Uchdan keyin juda kech" kitobida yozganidek: "...bolaning miyasi cheksiz miqdordagi ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin...". Yana shunga e'tibor qaratish kerakki, 6-7 yoshdagi bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushinib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun ham ingliz tilini o'rganayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga tilni o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani charchatishi va til o'rganishga bo'lgan qiziqishini susaytirib qo'yishi mumkin. Chunki boshlang'ich sinfdagi o'quvchilarga chet tilini o'rgatish qiyin shu bilan birga mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi innovatsion metodlardan foydalanish mumkin:

- Aralash texnika bu yerda biz ixtiyoriy ravishda turli xil texnikalarni birlashtira olamiz. Masalan, bunda bolalar o'yin o'ynashi, qo'shiqlar aytishi, rasm chizishi, turli xil harakatlar orqali yangi so'zlarni ko'rsatib berishi mumkin. Texnikaning afzalligi xilma-xillikda. Bunda o'quvchi faqat bitta narsa orqali cheklanib qolmaydi.

- Multfilmlar orqali o'rgatish. Ma'lumki, bolalar turli xil multfilmlarni ko'rishga qiziqadi. Ingliz tilidagi multfilmlarni ko'rish jarayonida esa, multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganishlari uchun samarali yo'l.



- "Pantomima" (pantomime) . Bunda o'qituvchi o'quvchilarga biron bir so'zni aytadi va o'quvchi uni ko'rsatadi. Qolgan o'quvchilar esa so'zni topib, inglizcha nomini aytishi kerak bo'ladi .

- Sezgi a'zolar orqali o'rganish (sabzavot, mevalar , oziq-ovqatlarni tatib ko'rish, turli xil buyumlarni ushlab ko'rish, gullarni hidlab ko'rish). Ushbu yangi metodni o'rganishdan oldin bir amaliyotchi psixologning fikrlarini keltirish kerak: "Bolalarning esida biror narsaning mahkam o'rnashib qolishini xohlovchi pedagog bola sezgi organlarining mumkin qadar ko'prog'ini ko'zi, qulog'i, tovush organi, muskul sezgisi va hatto, hidlash va ta'm bilish organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishga harakat qilishi kerak".

NATIJA

Darhaqiqat, sezgi a'zolar orqali til o'rganish boshqa usullarga qaraganda foydali va samarali hisoblanadi . Masalan, o'quvchi birgina olmani tatib ko'rish jarayonida uning rangi, ta'mi, hajmi, hidi qanday ekanligini biladi va uning inglizcha nomini ham aytadi. Natijada esa, o'qituvchi bolalardan ranglarning inglizcha nomini so'rab qolsa, bolalar darrov meva yegan paytini eslaydi. Demak, bunday usullardan foydalanish o'quvchining ma'lumotlarni uzoq muddatda xotirasida saqlab qolishga yordam beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishni majburiyat sifatida emas, aksincha, qiziqarli o'yinlar va innovatsion metodlardan foydalangan holda olib borishi , ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shunday ekan, ta'lim tizimi ham o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shahsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqish bilan o'z hissamizni qo'shishimiz mumkin .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Turdaliyeva G.N "Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar"// 2020 .

2. Mohinur Murodulayevna. "THEORETICAL-METHODOLOGICAL ANALYZE OF COSMOS AND INDIVIDUAL ON CONTEXT OF EXPERIMENTAL SCIENCE." *Интернаука* 28 (2018): 77-79.

3. Juldashaeva, N. N. (2020). Хорижий тилларни ўқитишда ахборот технологиялар ва инновацион методларнинг ўрни. *Молодой ученый*, (12), 332-333.

4. Qayumova, Mohinur Murodullayevna, Muhlis Sobirjonovna Sobirjonova, and Feruz Qurbonaliyevich Saidov. "Galileo's influence on John Milton concept "individual". Similarities and differences between the outlook of Galileo and John Milton." *Science and Education* 2.6 (2021): 494-498.

MOBIL INVENTARIZATSIYA

Shukrullayev Shamsiddin Po'latjon o'g'li

Andijon mashinasozlik instituti Intellektual muhandislik tizimlari yo'nalishi talabasi

Ushbu maqola tayyor va yarimtayyor mahsulotlarni inventarizatsiya jarayonini avtomatlashtirish va sanoqdan o'tkazish jarayoniga asoslanagan. Bizning bu loyihamızda mobil ilova yordamida mahsulotlarni sanoqdan o'tkazib uning ma'lumotlarini serverga yetkazishdan iboratdir. Ushbu platforma ilova ko'rinishda bo'lib vazifasi inventarizatsiya jarayoni ya'ni ombordagi yarim tayyor mahsulotlarni sanog'ini bilish uchun QR kodlar va shtrix kodlarni skaner qilish orqali mahsulotlarning umumiy ma'lumotlarini ma'lumotlar bazasiga to'plab borishdan iborat.

Inventarizatsiya tizimi – mavjud bo'lgan xomashyo, materiallar yoki tayyor mahsulotlar miqdori to'g'risida hisobot beradigan kuzatuv tizimi. Bu kerakli miqdordagi materiallarni, kerakli sifatda, kerakli joyda o'z vaqtida bo'lishini ta'minlaydi. Keyingi kun uchun nima borligini bilish uchun mahsulot har safar sotilganda yoki mahsulot ishlab chiqarishda xomashyo ishlatilganda ushbu tizim yangilanadi. Shuningek, bu sizga har doim kerakli hamma narsaga ega bo'lishingiz uchun mahsulotlarga oldindan buyurtma berishga imkon beradi.[1]. Odamlar inventarizatsiya tizimi haqida o'ylashganda, uni chakana savdo bilan bog'lash odatiy holdir. Biroq do'konlar muvaffaqiyatli ishlashi uchun samarli inventarizatsiya tizimini talab qilishiga qaramay, u ko'plab boshqa korxonalarda, masalan, ishlab chiqarish, kommunal xizmatlar, sog'liqni saqlash, hukumat va ta'lim sohasida qo'llaniladi. Ta'minot zanjirining bir qismi sifatida inventarizatsiya tizimi xaridlarni nazorat qilish, zaxiralarni saqlashni ta'minlash, sotiladigan mahsulotlar sonini nazorat qilish kabi jihatlarni o'z ichiga oladi.


Inventarizatsiya tashkilotning mol-mulki mavjudligini va uning moliyaviy majburiyatlarining holatini ma'lum bir sanada faktik ma'lumotlarni buxgalteriya ma'lumotlari bilan taqqoslash orqali tekshirish. Bu mulkiy qadriyatlar va mablag'larning xavfsizligini amalda nazorat qilishning asosiy usuli hisoblanadi[2].

Mobil inventarizatsiya loyihaga bo'lgan ehtiyoj va talab barcha tashkilotlarda, ta'lim muassasalarida, ishlab chiqarish korxonalarida yuqori. Ya'ni Oliy ta'lim muassasalarini misol qiladigan bo'lsak, har yili universitetlarga va institutlarga kerakli jihozlar (kompyuter, stol-stul, javon, va hokozolar) keltiriladi va ular kop hollarda inventarizatsiya jarayonidan o'tkazilmaydi buning oqibatida mahsulotlar yo'qolishi, hisobi chiqmasligi mumkin biz buning oldini olish maqsadida ushbu loyhani ishlab chiqishga qaror qildik.

Oliy ta`limga yana bir foyda tomoni shundan iboratki oraliq nazoratlari va yakuniy nazorat ishlariga inventarizatsiya jarayonini qo`llamoqchimiz. Yani nazorat ishlari tekshirilgandan so`ng uni natijasi skaner qilinadi va ballar excel formatda dekanat bazasiga tushadi. Ishlab chiqarish korxonalarida, MCHJ larda bu loyhaga extiyoj yuqoridir. Biz bu loyihani dastlab o`z viloyatimiz miqyosida targ`ib qilamiz. So`ng butun O`zbekistondagi ta`lim muassasalar, davlat tashkilotlar, avto sanoatlar, turli korxonalar va sexlar uchun targ`ib qilamiz[3].

Bu loyihaning asosiy mijozlari va foydalanuvchilari ishlab chiqarish korxonalari, zavodlar, sexlar, ta`lim muassasalari vahokozolar hisoblanadi. Shuning uchun ham loyihani boshlashdan oldin bir necha ishlab chiqarish korxonalari bilan gaplashilgan va ularning taklif va talablari o`rganilgan shu taklifdan kelib chiqqan holda ushbu loyiha ishlab chiqariladi.

Mobil ilovaning ko`rinishi taxminan shunday ko`rinishda bo`ladi.



Ilova ochiladi

**Belgilangan joy
skanerlan**

**Ma`lumotlar yig`iladi
va saqlanadi**

Ushbu loyiha ishlab chiqilgandan so`ng tegishli tartibda davlat ro`yxatidan o`tkaziladi. Tegishli tashkilotga ma`qul kelib, tasdiqdan o`tsa Respublika miqiyosida joriy etilishi mumkin. Chunki hozirgi kunda jarayonlarini avtomatlashtirish va identifikatsiyalashtirish eng dolzarb masalalardan biri bo`lib kelmoqda. Hamda hozirgi kunda barcha ishlab chiqarish korxonalari avtomatlashtirilib borilmoqda. Ushbu platforma ish jarayoni ancha yengilashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari IT sohasiga qaratilgan e`tibor va imkoniyatlar loyihaning rivojlanishiga va yaxshi natijaga erishishiga asos bo`la oladi[4].

Kutilayotgan natijalarga keladigan bo'lsak kelgusi yil bahorga qadar O'zbekistondagi 10 ga yaqin avto sanoat korxonalarini va turli muassasa, tashkilot, fabrikalarni avtomatlashtirish.

Mobil inventarizatsiyani avtomatlashtirish va boshqarish tizimi uzoq vaqt davomida muvaffaqiyatli ishlashni rejalashtirgan har bir korxonaga uchun zarur. Axir, bu sizga xazinalarni nazorat qilish va to'ldirish funksiyasini amalga oshirishga imkon beradi. Strukturaviy element sifatida avtomatlashtirish vositalari muhim rol o'ynaydi. Ishonch bilan ayta olamizki, ular asta-sekin takomillashtiriladi va kelajakda biz korxonaning ushbu tarkibiy qismini faqat sozlash kerak bo'lgan avtonom tizim sifatida ko'rishimiz mumkin. U mustaqil harakatlarni amalga oshirishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nikol Pontius (2019). Inventarizatsiyani boshqarish tizimlarining 4 turi: doimiy va boshqalar. Zahiralarni davriy nazorat qilish va ularni qo'llab-quvvatlaydigan zahiralarni boshqarish tizimi. Kamera. Olingan.camcode.com
2. Business Jarhons (2019). Zahiralarni boshqarish tizimi. Olingan:businessjargons.com
3. Akhmadjonovich, S. D. (2022). Socio-Economic Aspects of Management Quality. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 4, 394–398.
4. Автоматизация процессов машиностроения / под ред. А. И. Дашенко, — М.: Высш. шк., 1991. — 480 с.



**PEDAGOGIK TA'LIM YO'NALISHLARIDA XORIJ TILLARINI O'QITISH
AHAMIYATI**

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Pedagogika fakulteti Boshlang'ich talim
yo'nalishi 5-BT-22 guruh talabasi

Safarova Rushana Murodulla qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Filologiya fakulteti ingliz fani o'qituvchisi

Qayumova Mohinur Murodullayevna

Annotatsiya: Dunyo globalashuv jarayoni insonlardan o'z ona tilidan tashqari yana bir necha xorijiy tillarni o'rganishni taqozo qilmoqda. Hozirgi tadqiqotlar ushbu jarayonni erta yoshda boshlash samariliroq bo'lishini ko'rsatadi. Bizning yurtimizda ham ushbu masalaga qat'iy e'tibor qaratilgan, xorijiy tillarni o'qitishda xususan ingliz tilini o'qitishda dunyoning yetakchi tashkilot va universitetlar hamkorligida yangicha yondashuv asosida dasturlar ishlab chiqilmoqda. Oxirgi 3 yilda bu jarayon maktab ta'limida ayniqsa o'z rivojini topmoqda. Davlat qaramog'idagi hamda xususiy tarmoqdagi maktab ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'rgatish bo'yicha keng ko'lamliloyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada chet tillarini xususan, ingliz tilini bolalikni ilk yoshida o'qitishda ta'limiy o'yinlardan foydalanishning muhimligi va aynan turli o'yinlar orqali til ko'nikmalari oson o'zlashtirilishi yuzasidan fikrlar yoritilgan.

Kalit so'z: xorijiy til, erta yoshda til o'rganish, ta'limiy o'yin, faoliyat, nozik vosita mahorati, ko'z-qo'l muvofiqlashuvi, faol ta'lim turlari.

Abstract: The process of globalization requires people to learn several foreign languages in addition to their mother tongue. Current research shows that starting this process at an early age is more effective. In our country, strict attention is paid to this issue, programs are being developed based on a new approach to teaching foreign languages, especially English, in cooperation with the world's leading organizations and universities. In the last 3 years, this process is especially developing in school education. Large-scale projects on teaching English are being implemented in state-owned and private schools. This article highlights the importance of using educational games in the teaching of Shet languages, especially English in early childhood, and the easy acquisition of language skills through various games.

Key words: foreign language, language learning at an early age, educational game, activity, fine motor skills, hand-eye coordination, types of active education.

KIRISH.

Bog'cha va maktab yoshida o'yin bolaning eng asosiy va sevimli mashg'uloti bo'lganligi tufali bola atrof olamni ham o'yin orqali kashf etadi. Agar xorijiy tillarni ham o'yinga qorishtirgan xolda o'rgatilsa bu til ko'nikmalarining o'zlashtirilish samaradorligini bir necha barobarga oshiradi. O'yin bolani nafaqat jismoniy faolligini oshiradi shuningdek ruhiy tetiklikni ham shakllanitirshga yordam beradi. O'yin bolani o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashiga, atrofdagilar bilan ijtmoiy munosabatlarni shakllantirishga ham katta ko'mak beradi. Aynan o'yin orqali bolalar ta'lim oladilar va o'z iqtidorlarini kashf etadilar. Bunga erishish uchun sezgi organlarini faollashtiruvchi muhitni, jumladan vizual, eshitish, kinestetik kabi faol ta'lim turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq xisoblanadi. Ta'limiy o'yinlar musiqa asboblarnini chalish, qo'shiqlar kuylash, she'r aytish, raqsga tushish, o'yin o'ynash, videolar tomosha qilish, qo'l mehnati vositasida turli narsalar yasashni o'z ichiga oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI .

Dunyo olimlari 10 yoshgacha bo'lgan davrda bola chet tilini oson o'zlashtirishishi bo'yicha yakdil fikr bildirishgan. Bu davrda bola tillarni tushunib emas balki mexanik tarzda o'rganadi shuning uchun xorijiy tilni qo'llanilishi va talaffuzi oson o'zlashtiriladi. Ammo shunday bo'lsada bolaning har qanday tilning tovushlarini taqlid qilish qobiliyati bilan tug'ilishini hisobga olsak bu jarayonni ertaroq boshlash fikridagilar ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Inson miyasini o'rganilish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida, chaqaloq tug'ilishidan uch yoshigacha bo'lgan davr bola rivojlanishning eng muhim davri ekanligi isbotlangan. Shuningdek, uch yoshli bolaning miyasi katta yoshdagi odam miya faoliyatidan ikki karra tezroq va yaxshiroq ishlashi ham aniqlangan. Shuning uchun ingliz mutaxassislarining fikricha bolaning birinchi yildayoq ikkinchi tilni tanishtirib borish uni oson o'zlashtirishiga yordam bo'lishini ta'kidlashadi. Ammo har qanday xolatda xam bolaning psixologik va til o'zlashtirish qobiliyatini hisobga olish nihoyatda muhim omil ekanligini unitmasligimiz kerak.

Bolaning tayyorligi har qanday bola alohida shaxs individ hisoblanadi, tabiiyki ulardagi rivojlanish bosqichlari ham bir biridan farq qiladi. Psixologlarning fikricha bolani erta yoshdan gapirishga majbur qilish yoki uni tengdoshlariga qiyoslab rivojlantirishga harakat qilish ko'p hollarda aks ta'sirini beradi va yaxshi bo'lmagan natijalarga olib keladi. Maktab yoshidagi bolalarga chet tilini o'rgatishda psixologik-pedagogik xususiyatlarni, ya'ni ularning qiziquvchanliklarini va serhafsasaliklarini inobatga olish lozim. Shuningdek, bolalar uzoq muddat davomida o'z diqqatlarini bir turdagi faoliyatga qarata olmasliklarini yodda tutish zarur . Ota ona o'z farzandini har tomonlama yetuk bo'lishini istaydi va ko'p

xollarda bolaning psixologik va fiziologik tayyorligini xisobga olmasdan unga turli fanlardan yuklamalar berishga, til o'rgatishga yoki sport mashg'ulotlariga jalb qilishga xarakat qiladilar. Aksar xolatlarda ota onalar kutilgan natijaga erisha olmagach, bolaga tanbeh berish yoki tengdoshlariga qiyoslash orqali bolaga ta'sir o'tkazishga xarakat qiladilar. Ammo bu ikki urinish ham bolaning o'rganishga bo'lgan rag'batini susaytiradi va atrofdagi narsalarga bo'lgan qiziqishini so'nishiga sababchi bo'lib qoladi. Bolaning erkin fikrlashga o'rgatish, undagi qiziquvchanlikni va atrofni o'rganishga bo'lgan rag'batni kuchaytirish, bolaning tasavvurini boyitish, ijodkorligini yuzaga chiqarishni eng oson va maqbul yo'li bu o'yindir. Bolalar o'ynashganda ular o'z g'oyalarini amaliyotga tatbiq qiladilar, farazlarni sinovdan o'tkazadilar, zaruriy ko'nikmalarni egallaydilar, o'z tasavvurlaridan foydalanishadi va o'zlarining dunyolarini kashf etishadi.

METADOLOGIYA.

“Dressing” ta’limiy faoliyat turi orqali bolalarga dunyo xalqlarning ertak qahramonlarini tanishtirish mumkin. Ertak qahramonlarining obrazlarini bolalarga tanishtirilayotganda ularning kiyimlarini kiydirish va rol ijro etish ingliz tilida olib boriladi va bu faoliyat yordamida bolaning ingliz tili so'z boyligi ortadi va bola tasavvuri, dunyoqarashi kengayadi. Ushbu ta’limiy faoliyat orqali bolalar, inson tana a’zolariga hamda kiyim kechakka oid bo’lgan so’zlarni o’rganadilar va amaliyotda qo’llash imkoniga ega bo’ladilar.

Inson tana a’zolari: head(bosh), arms(qo’llar), hands(qo’llar), foot (feet)(oyoqlar), legs(oyoqlar), eyes(ko’zlar)... Kiyimlar: dress(qizlar ko’ylagi), shirt(og’il bolalar ko’ylagi), t-shirt(futbolka), shoes(poyafzal), slippers(shippaklar), cap(kepka), belt(kamar), gloves(qo’lqoplar) ... Buyruq ham tana a’zolariga urg’u bergan xolda beriladi: put your arms through here (qo’lingizni shu yerga kiriting), tie this around your waist/wrist (belingizga taqing), put these on your feet (bularni oyog’ingizga kiying) — first your right foot (avval o’ng oyog’ingizdan boshlang), then your left foot (so’ng chap oyog’ingizga), put this over your head (boshingizga kiying).

XULOSA.

Ta’limiy faoliyatda bolalarni faol qatnashishini ta’minlash, har bir bolaga aloxida e’tibor qaratish va bolani ushbu mashg’ulotda biror narsa o’rganish uchun rag’batlantirib borish lozim. Mashg’ulotga yutuqqa erishayotgan bolalarni ishi uchun maqtab qo’yish ham ulardagi rag’batni kuchaytiradi. Ammo psixologlarning fikricha maqtov shaxsga nisbatan emas balki qilingan ishiga nisbatan qaratilishi kerak ,deyiladi. Chunki, maqtov shaxsga nisbatan berilsa bu bolani keyinchalik hudbinlikka yetaklab borishi mumkin ekan. Ishiga qaratilgan maqtov keyinchalik ham har qanday ishni sifatli va tez bo’lishini ta’minlaydi.

FOYDANILGAN ADABIYOT:

1. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va boshlang'ich maktab o'quvchilariga chet tilini o'rgatishda o'yinlar. Baxramova M.D. Tuzuvchi: Baxramova.M.D.,—T.2016.

Veb-sayt:

1. https://eacea.ec.europa.eu/national-policies/eurydice/content/teaching-and-learning-early-childhood-education-and-care-8_en. internet resurs

2. <https://www.britishcouncil.org/voices-magazine/how-young-children-learn-english-through-play> internet resurs

3. <https://www.parents.com/baby/development/intellectual/how-to-teach-your-child-a-foreign-language/> internet resurs



**INGLIZ TILINI BOSHLANG'ICH SINFLAR KESIMIDA O'QITISHDA
INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH**

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Pedagogika fakulteti Boshlang'ich talim
yo'nalishi 5-BT-22 guruh talabasi

To'xtamurodova Muxlisa

Ilmiy rahbar : Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Filologiya fakulteti ingliz fani
o'qituvchisi

Qayumova Mohinur Murodullayevna

Tel:+998 91 077 80 03

Annotatsiya. Bolalarga ingliz tilini o'rgatish qiziqarli bo'lishi va ularning his-tuyg'ulari, harakatlari va o'zaro munosabatlariga e'tibor qaratish kerak. Til o'rganish ko'nikmalarini o'zlashtirish uchun rag'batlantiruvchi va interaktiv vaziyatlar va tadbirlarni yaratish juda muhimdir. Yosh bolalarni ingliz tilini o'rganish uchun qiziqarli va rag'batlantiruvchi turli vaziyatlar hosil qilish va bolalarni unda faol ishtrok etishlarini ta'minlash barcha mavjud imkoniyatlardan foydalanish ayniqsa muhim ahamiyati yoritilgan.


Kalit so'z: Ta'limda o'yin, kompyuter, mashqlar, o'yinlar, "Quvnoq topishmoqlar", "Rasmdagi gaplar" o'yini.

Abstract. In this article, as a result of the use of modern approaches and innovative methods in teaching English in primary grades, the development of students' logical thinking skills, fluency in speech, the formation of the ability to quickly and correctly answer, and the desire for knowledge it is reported that he tries to prepare well for classes.

Key word: game in education, computer, exercises, games, "Happy riddles", "Sentences in the picture" game.

KIRISH.

Yosh bolalarni ingliz tilini o'rganishida qiziqarli va muloqot qilishga rag'batlantiruvchi vaziyatlar va faoliyatlarga jalb qilish til ko'nikmalarini o'zlashtirish uchun juda muhim omil hisoblanadi. Faoliyat maqsadi ingliz tilini o'rgatish bo'lsa-da, u o'yin kabi bolalarni o'ziga jalb qila olishi hamda ushbu mashg'ulotlarga bolalar beixtiyor kirishib ketishi va bolalar xorijiy tilni o'z ona tili kabi tabiiy tarzda o'zlashtirib borishligini ta'minlash ham alohida e'tiborga muhtojdir. Ilmiy-ommabop xorijiy badiiy va multiplikatsion filmlarni o'zbekcha subtitr yordamida muntazam namoyish etish yoshlarimizga dunyo xalqlarining o'tmishi, madaniyati, ilm-fani bilan yaqindan tanishish



imkonini berdi. Shu bilan birga, bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi hamda atrofdagilar bilan ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga katta ko'mak beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA

Ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish, eng samarali vositalardan biridir. O'yin davomida ularning tafakkuri, dunyoqarashi, fikrlashi kengayib boradi. Olimlar ta'limga o'yin orqali yondashuv ta'lim jarayonida osonlashtiradi, deb hisoblagan. Nafaqat osonlashtiradi, balki bu fanga qiziqishini kuchaytirib, bolani chuqur bilim

olishiga undaydi. O'yin tarzidagi darslar bolalarning og'zaki nutqini rivojlanishiga yordam beradi.

Birinchi sinf o'quvchilari rasmlari yoki videolari turli ko'rishlarni juda yaxshi ko'rishadi. Faoliyat maqsadi ingliz tilini o'rgatish bo'lsa-da, u o'yin kabi bolalarni o'ziga jalb qila olishi hamda ushbu mashg'ulotlarga bolalar beixtiyor kirishib ketishi va bolalar xorijiy tilni o'z ona tili kabi tabiiy tarzda o'zlashtirib borishligini ta'minlash ham alohida e'tiborga muhtojdir. O'quvchilar so'zlarni tinglab, ularni talaffuz etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Mavzuni kompyuter yordamida taqdim etishda ta'limni individuallashtirish printsipligiga e'tibor berish lozim. Ayrim o'quvchilar so'zning grafik, ayrimlari esa tovushli obrazni qabul qilishda qiyinchilikka uchraydilar. Kompyuter u yoki bu qiyinchilikni mashqlar vositasida bartaraf etib, o'quvchining ingliz tilidan o'zlashtirishga qiynalayotgan jihatlarni topishga va ularni bartaraf etishga yordam beradi.

Ikkinchi sinfdan boshlab grammatikani o'zlashtirishga qaratilgan boshqa ta'limiy o'yinlarni ham tashkil etish mumkin. Masalan, "Kim savodxon?", Kim zukko?, "Men kimman?", "Zanjir", "Rolli o'yin", "So'z o'rnini top kabi qiziqarli o'yinlar shular jumlasidandir. "Kim zukko?" o'yini imlo savodxonlikni oshirishda yaxshi natija beradi. Bunda karton qog'ozga 5-6 ta so'z yozilgan bo'lib, so'zlar to'g'ri va noto'g'ri yozilgan bo'ladi. O'quvchilardan noto'g'ri yozilgan so'zni topib, to'g'ri yozib berish talab qilinadi. Qaysi o'quvchi noto'g'ri yozilgan so'zlarni to'g'ri va birinchi bo'lib yozib berishga qarab o'yin g'olibi aniqlanadi.

Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jarayonida o'quvchi sub'ekt bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilari Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda, quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelmoqda. Boshlang'ich ta'lim ta'limda ingliz tilini o'rganish "Shexter" usuli, ya'ni "nazariydan amaliyotga" klassik modelga emas, balki teskari, tabiiyroq idrok tizimiga asoslanadi. Bunda bolalarga ona tilimizni o'rgatishimiz juda qulay. Yosh bolalar qanday gapirishni

bilmaydilar. O'qituvchilar tomonidan kerakli jumlar va nutq qismlarini qurish qoidalarini tushuntirilib, didaktik o'yinlar orqali ingliz tilini zamonaviy usullarda o'rgatiladi. Ingliz tilining ushbu texnikasi uch bosqichdan iborat: birinchidan so'zlar va iboralar, ikkinchi va uchinchi bosqichda grammatik va sintaktik tuzilmalardan foydalanish samaradorligi pedagog va psixologlar nuqtai nazaridan eng muvaffaqiyatli lardan biri hisoblanadi.

MUHOKAMA


Bola tabiatan juda qiziquvchan bo'ladi va u atrof olamni o'rganish uchun barcha his tuyg'ularini ishga soladi. O'yin bolaning eng asosiy va sevimli mashg'uloti bo'lganligi bois, bolaga atrof olam va undagi barcha zaruriy bilim va ko'nikmalar o'yin vositasida tanishtirib borilsa, ko'nikmalarni o'zlashtirish samaradorligi bir necha barobarga oshadi. O'yin bolani nafaqat jismoniy faolligini oshiradi shuningdek, u ruhiy tetiklikni ham shakllantirishga yordam beradi. O'yin bolani o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga, atrofdagilar bilan ijtmoy munosabatlarni shakllantirishga ham katta ko'mak beradi. Aynan o'yin orqali bolalar ta'lim oladilar o'z iqtidorlarini kashf etadilar. Bunga erishish uchun sezgi organlarini faollashtiruvchi muhitni, jumladan vizual, eshitish, kinestetik kabi faol ta'lim turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

NATIJA

Boshlang'ich ta'lim yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishning o'ziga xos xususiyati shundaki, u shunchaki stolda o'tirib, kitob va daftarlarni varaqlamaydi. Jarayon zerikarli bo'lmasligi va bolalar o'zlari bilimga intilishlari kerak. Ta'lim shakllari iloji boricha ko'proq leksik birliklarni o'zlashtirishga emas, balki mavzuga qiziqishni tarbiyalashga, bolaning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga va o'z fikrlarini ifoda etishga qodir bo'lishi kerak. Bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin. Boshlang'ich ta'lim yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatishda yoshiga mos ijodiy va didaktik o'yinlar va ochiq mashg'ulotlar bilan ularning shaxsiy kamolotini zamonaviy usullar asosida shakllantirish mumkin.

XULOSA.

Bolalarda ingliz tilini o'qitishda o'quvchilarni yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ulardagi chet tilini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, ehtiyojni to'la qondirishga yordam beruvchi pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy didaktik ishlanmalarni tayyorlash va ularni amalga oshirishning mustahkam mexanizmini ishlab chiqish muaommoning amaliy yechimini ta'minlaydi.



FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. 2012, b-67

Qayumova, Mohinur Murodulayevna. "THEORETICAL-METHODOLOGICAL ANALYZE OF COSMOS AND INDIVIDUAL ON CONTEXT OF EXPERIMENTAL SCIENCE." Интернаука 28 (2018): 77-79.

Ergashovna M. G. TYPES OF FABRICS AND THEIR ANALYSIS //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – T. 2. – №. 5. – С. 59-61.

Qayumova, Mohinur Murodulayevna, Muhlisa Sobirjonovna Sobirjonova, and Feruz Qurbonaliyevich Saidov. "Galileo's influence on John Milton concept "individual". Similarities and differences between the outlook of Galileo and John Milton." Science and Education 2.6 (2021): 494-498.

5. Отабоева, М. Р. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalar.

6. Zayniddin Sanaqulov "Chet til o'qitish metodikasida zamonaviy



**INGLIZ TILINI BOSHLANG'ICH SINFLAR KESIMIDA O'QITISHDA
INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH**

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Pedagogika fakulteti Boshlang'ich talim
yo'nalishi 5-BT-22 guruh talabasi

To'xtamurodova Muxlisa

Ilmiy rahbar : Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Filologiya fakulteti ingliz fani
o'qituvchisi

Qayumova Mohinur Murodullayevna

Tel:+998 91 077 80 03

Annotatsiya. Bolalarga ingliz tilini o'rgatish qiziqarli bo'lishi va ularning his-tuyg'ulari, harakatlari va o'zaro munosabatlariga e'tibor qaratish kerak. Til o'rganish ko'nikmalarini o'zlashtirish uchun rag'batlantiruvchi va interaktiv vaziyatlar va tadbirlarni yaratish juda muhimdir. Yosh bolalarni ingliz tilini o'rganish uchun qiziqarli va rag'batlantiruvchi turli vaziyatlar hosil qilish va bolalarni unda faol ishtrok etishlarini ta'minlash barcha mavjud imkoniyatlardan foydalanish ayniqsa muhim ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'z: Ta'limda o'yin, kompyuter, mashqlar, o'yinlar, "Quvnoq topishmoqlar", "Rasmdagi gaplar" o'yini.

Abstract. In this article, as a result of the use of modern approaches and innovative methods in teaching English in primary grades, the development of students' logical thinking skills, fluency in speech, the formation of the ability to quickly and correctly answer, and the desire for knowledge it is reported that he tries to prepare well for classes.

Key word: game in education, computer, exercises, games, "Happy riddles", "Sentences in the picture" game.

KIRISH.

Yosh bolalarni ingliz tilini o'rganishida qiziqarli va muloqot qilishga rag'batlantiruvchi vaziyatlar va faoliyatlarga jalb qilish til ko'nikmalarini o'zlashtirish uchun juda muhim omil hisoblanadi. Faoliyat maqsadi ingliz tilini o'rgatish bo'lsa-da, u o'yin kabi bolalarni o'ziga jalb qila olishi hamda ushbu mashg'ulotlarga bolalar beixtiyor kirishib ketishi va bolalar xorijiy tilni o'z ona tili kabi tabiiy tarzda o'zlashtirib borishligini ta'minlash ham alohida e'tiborga muhtojdir. Ilmiy-ommabop xorijiy badiiy va multiplikatsion filmlarni o'zbekcha subtitr yordamida muntazam namoyish etish yoshlarimizga dunyo xalqlarining o'tmishi, madaniyati, ilm-fani bilan yaqindan tanishish

imkonini berdi. Shu bilan birga, bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi hamda atrofdagilar bilan ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga katta ko'mak beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA

Ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish, eng samarali vositalardan biridir. O'yin davomida ularning tafakkuri, dunyoqarashi, fikrlashi kengayib boradi. Olimlar ta'limga o'yin orqali yondashuv ta'lim jarayonida osonlashtiradi, deb hisoblagan. Nafaqat osonlashtiradi, balki bu fanga qiziqishini kuchaytirib, bolani chuqur bilim

olishiga undaydi. O'yin tarzidagi darslar bolalarning og'zaki nutqini rivojlanishiga yordam beradi.

Birinchi sinf o'quvchilari rasmlari yoki videolari turli ko'rishlarni juda yaxshi ko'rishadi. Faoliyat maqsadi ingliz tilini o'rgatish bo'lsa-da, u o'yin kabi bolalarni o'ziga jalb qila olishi hamda ushbu mashg'ulotlarga bolalar beixtiyor kirishib ketishi va bolalar xorijiy tilni o'z ona tili kabi tabiiy tarzda o'zlashtirib borishligini ta'minlash ham alohida e'tiborga muhtojdir. O'quvchilar so'zlarni tinglab, ularni talaffuz etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Mavzuni kompyuter yordamida taqdim etishda ta'limni individuallashtirish printsipligiga e'tibor berish lozim. Ayrim o'quvchilar so'zning grafik, ayrimlari esa tovushli obrazni qabul qilishda qiyinchilikka uchraydilar. Kompyuter u yoki bu qiyinchilikni mashqlar vositasida bartaraf etib, o'quvchining ingliz tilidan o'zlashtirishga qiynalayotgan jihatlarni topishga va ularni bartaraf etishga yordam beradi.

Ikkinchi sinfdan boshlab grammatikani o'zlashtirishga qaratilgan boshqa ta'limiy o'yinlarni ham tashkil etish mumkin. Masalan, "Kim savodxon?", Kim zukko?, "Men kimman?", "Zanjir", "Rolli o'yin", "So'z o'rnini top kabi qiziqarli o'yinlar shular jumlasidandir. "Kim zukko?" o'yini imlo savodxonlikni oshirishda yaxshi natija beradi. Bunda karton qog'ozga 5-6 ta so'z yozilgan bo'lib, so'zlar to'g'ri va noto'g'ri yozilgan bo'ladi. O'quvchilardan noto'g'ri yozilgan so'zni topib, to'g'ri yozib berish talab qilinadi. Qaysi o'quvchi noto'g'ri yozilgan so'zlarni to'g'ri va birinchi bo'lib yozib berishga qarab o'yin g'olibi aniqlanadi.

Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jarayonida o'quvchi sub'ekt bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilari Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda, quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelmoqda. Boshlang'ich ta'lim ta'limda ingliz tilini o'rganish "Shexter" usuli, ya'ni "nazariydan amaliyotga" klassik modelga emas, balki teskari, tabiiyroq idrok tizimiga asoslanadi. Bunda bolalarga ona tilimizni o'rgatishimiz juda qulay. Yosh bolalar qanday gapirishni

bilmaydilar. O'qituvchilar tomonidan kerakli jumlar va nutq qismlarini qurish qoidalarini tushuntirilib, didaktik o'yinlar orqali ingliz tilini zamonaviy usullarda o'rgatiladi. Ingliz tilining ushbu texnikasi uch bosqichdan iborat: birinchidan so'zlar va iboralar, ikkinchi va uchinchi bosqichda grammatik va sintaktik tuzilmalardan foydalanish samaradorligi pedagog va psixologlar nuqtai nazaridan eng muvaffaqiyatli lardan biri hisoblanadi.

MUHOKAMA


Bola tabiatan juda qiziquvchan bo'ladi va u atrof olamni o'rganish uchun barcha his tuyg'ularini ishga soladi. O'yin bolaning eng asosiy va sevimli mashg'uloti bo'lganligi bois, bolaga atrof olam va undagi barcha zaruriy bilim va ko'nikmalar o'yin vositasida tanishtirib borilsa, ko'nikmalarni o'zlashtirish samaradorligi bir necha barobarga oshadi. O'yin bolani nafaqat jismoniy faolligini oshiradi shuningdek, u ruhiy tetiklikni ham shakllantirishga yordam beradi. O'yin bolani o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga, atrofdagilar bilan ijtmoy munosabatlarni shakllantirishga ham katta ko'mak beradi. Aynan o'yin orqali bolalar ta'lim oladilar o'z iqtidorlarini kashf etadilar. Bunga erishish uchun sezgi organlarini faollashtiruvchi muhitni, jumladan vizual, eshitish, kinestetik kabi faol ta'lim turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

NATIJA

Boshlang'ich ta'lim yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishning o'ziga xos xususiyati shundaki, u shunchaki stolda o'tirib, kitob va daftarlarni varaqlamaydi. Jarayon zerikarli bo'lmasligi va bolalar o'zlari bilimga intilishlari kerak. Ta'lim shakllari iloji boricha ko'proq leksik birliklarni o'zlashtirishga emas, balki mavzuga qiziqishni tarbiyalashga, bolaning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga va o'z fikrlarini ifoda etishga qodir bo'lishi kerak. Bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin. Boshlang'ich ta'lim yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatishda yoshiga mos ijodiy va didaktik o'yinlar va ochiq mashg'ulotlar bilan ularning shaxsiy kamolotini zamonaviy usullar asosida shakllantirish mumkin.

XULOSA.

Bolalarda ingliz tilini o'qitishda o'quvchilarni yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ulardagi chet tilini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, ehtiyojni to'la qondirishga yordam beruvchi pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy didaktik ishlanmalarni tayyorlash va ularni amalga oshirishning mustahkam mexanizmini ishlab chiqish muaommoning amaliy yechimini ta'minlaydi.



FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. 2012, b-67


Qayumova, Mohinur Murodulayevna. "THEORETICAL-METHODOLOGICAL ANALYZE OF COSMOS AND INDIVIDUAL ON CONTEXT OF EXPERIMENTAL SCIENCE." Интернаука 28 (2018): 77-79.

Ergashovna M. G. TYPES OF FABRICS AND THEIR ANALYSIS //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 59-61.

Qayumova, Mohinur Murodullayevna, Muhlisa Sobirjonovna Sobirjonova, and Feruz Qurbonaliyevich Saidov. "Galileo's influence on John Milton concept "individual". Similarities and differences between the outlook of Galileo and John Milton." Science and Education 2.6 (2021): 494-498.

5. Отабоева, М. Р. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalar.

6. Zayniddin Sanaqulov "Chet til o'qitish metodikasida zamonaviy



**PEDAGOGIK TA'LIM YO'NALISHLARIDA XORIJ TILLARINI O'QITISH
AHAMIYATI**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti Boshlang'ich talim yo'nalishi
5-BT-22 guruh talabasi **Yo'ldashyeva Maftuna**
Tel:+99895 192 60 04

Annotatsiya: Bolalarga ingliz tilini o'rgatish qiziqarli bo'lishi va ularning his-tuyg'ulari, harakatlari va o'zaro munosabatlariga e'tibor qaratish kerak. Til o'rganish ko'nikmalarini o'zlashtirish uchun rag'batlantiruvchi va interaktiv vaziyatlar va tadbirlarni yaratish juda muhimdir. Asosiy maqsad ingliz tilini o'rgatish bo'lishi mumkin bo'lsa-da, bolalarni o'yin kabi mashg'ulotlarga jalb qilish nafaqat ularning qiziqishini uyg'otibgina qolmay, balki o'z ona tiliga o'xshash tabiiy ravishda chet tilini bosqichma-bosqich o'rganishni ham ta'minlaydi.

Kalit so'z: xorij tili , ta'limiy o'yinlar, rol o'yini, Playing with blocks or legos, shakllar, lego o'yini, aqliy xushyorlik, ona tili.

Abstract: Teaching English to children should be fun and focus on their feelings, actions and interactions. It is important to create stimulating and interactive situations and activities for the acquisition of language learning skills. Although the main goal may be to teach English, engaging children in activities such as games not only arouses their interest, but also allows them to gradually learn a foreign language in a natural way similar to their mother tongue. also provides step-by-step learning.

Key words: foreign language, educational games, role-playing game, Playing with blocks or legos, forms, lego game, mental alertness, native language.

KIRISH.

Bolalarning maktabda qanday o'qishi, yuksak maqsadlar bilan kamol topishi ko'p jihatdan oila muhiti, mahalla e'tibori hamda maktab ta'lim muassasasidagi tarbiyaga bog'liq. Maqolada berilgan ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson umri davomida oladigan barcha axborotning 70 foizini 6 yoshgacha bo'lgan davrda olishi aynan bola shaxsining rivojlanishida maktab ta'limining o'rni nechog'li muhimligidan dalolat beradi. Xorijiy tillarni ham bolalarga erta yoshida o'rgatish til ko'nikma va malakalarining oson o'zlashtirishiga sabab bo'lar ekan. Ayniqsa ushbu bilim, ko'nikma, malakalar turli o'yin va ta'limiy faoliyatlar orqali singdirib borilsa, bola xoirijiy tillarni o'z ona tilisi kabi tabiiy tarzda rivojlantirib boradi. Ta'limiy o'yinlar bolada nafaqat bilim ko'nikma, malakalarni shakllantiradi balki ,shu bilan birga u bolani jismonan sog'lom rivojlanishini

ta'minlaydi, ruhan tetiklashtiradi, o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi hamda atrofdegilar bilan ijtmoy munosabatlarni shakllantirishga katta ko'mak beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Yosh bolalar o'zlarining his-tuyg'ulari va harakatlari orqali o'rganishadi, shuning uchun ingliz tilini o'rganish ham ana shu his tuyg'ular va xatti harakatlar orqali amalga oshirilishi kerak. Yosh bolalarni ingliz tilini o'rganishida qiziqarli va muloqot qilishga rag'batlantiruvchi vaziyatlar va faoliyatlarga jalb qilish til ko'nikmalarini o'zlashtirish uchun juda muhim omil hisoblanadi. Faoliyat maqsadi ingliz tilini o'rgatish bo'lsa-da, u o'yin kabi bolalarni o'ziga jalb qila olishi hamda ushbu mashg'ulotlarga bolalar beixtiyor kirishib ketishi va bolalar xorijiy tilni o'z ona tili kabi tabiiy tarzda o'zlashtirib borishligini ta'minlash ham alohida e'tiborga muhtojdir. Yosh bolalarni ingliz tilini o'rganish uchun qiziqarli va rag'batlantiruvchi turli vaziyatlar hosil qilish va bolalarni unda faol ishtrok etishlarini ta'minlash barcha mavjud imkoniyatlardan foydalanish ayniqsa muhim ahamiyatga ega.

Bola tabiatan juda qiziquvchan bo'ladi va u atrof olamni o'rganish uchun barcha his tuyg'ularini ishga soladi. O'yin bolaning eng asosiy va sevimli mashg'uloti bo'lganligi bois, bolaga atrof olam va undagi barcha zaruriy bilim va ko'nikmalar o'yin vositasida tanishtirib borilsa, ko'nikmalarni o'zlashtirish samaradorligi bir necha barobarga oshadi. O'yin bolani nafaqat jismoniy faolligini oshiradi shuningdek, u ruhiy tetiklikni ham shakllantirishga yordam beradi. O'yin bolani o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga, atrofdegilar bilan ijtmoy munosabatlarni shakllantirishga ham katta ko'mak beradi. Aynan o'yin orqali bolalar ta'lim oladilar o'z iqtidorlarini kashf etadilar. Bunga erishish uchun sezgi organlarini faollashtiruvchi muhitni, jumladan vizual, eshitish, kinestetik kabi faol ta'lim turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ta'limiy o'yinlar musiqa asboblarni chalish, qo'shiqlar kuylash, she'r aytish, raqsga tushish, o'yin o'ynash, videolar tomosha qilish, qo'l mehnati vositasida turli narsalar yasashni o'z ichiga oladi. Rangli ko'rgazmalar, kartalar, musobaqalar, rol o'yinlar, turli shakllar yasash kabi o'yinlar bolalarni jismoniy va aqliy faoliyatini rivojlantiruvchi eng qiziqarli usullardan biridir.

METADOLOGIYA.

"Playing with blocks or legos" Bolalarga ingliz tilida shakllar, ranglar va raqamlar haqida tushuncha berish maqsad qilinganda aynan bloklar, kubiklar hamda lego o'yini orqali amalga oshirilganda o'zlashtirish natijasi yaxshiroq bo'lishi amaliyotda o'z isbotini topgan. Bloklar, kubiklar va lego o'yinchoqlarini o'ynash bolani fikrlashga undaydi va biror ish qilishda uning ijodiy qobiliyatini yuzaga chiqaradi, shu bilan birga bu o'yinlar vositasida bolaning ingliz tilida lug'at boyligini oshirish imkoniyati ham paydo bo'ladi.

O'yinlarda so'z boyligini ingliz tilida savol berish hamda asosiy tushunchalarni ko'rsatma orqali yetkazish bilan amalga oshiriladi. Bola bu o'yin orqali sanashni va tartiblashni o'rganadi:

How many blocks are there? (u yerda nechta kubik bor?)

Shall we put the blue ones here? (bu yerga ko'k kubikni qo'yamizmi?)

Narsalar joylashuvini predloglar orqali o'rganadilar: in(ichida), on(ustida), under(ostida), below(pastda), behind(orqasida), next to(yonida). O'lchov birliklari haqida tushuncha ega bo'ladilar: big(katta), small(kichik), long(uzun), short(qisqa). Quyidagi so'zlar yordamida bola yasayotgan narsalarga ko'rsatma beriladi: Find the the red block, please!(qizil kubikni toping!), Pull the blue one, please!(ko'k kubikni torting!), push them!(ularni suring!), Build the house, please!(uy quring!) make the car, please! (mashina yasang!). Bola yasayotgan narsa va shakllarga ta'rif beriladi: square(kvadrat), rectangle(to'g'ri to'rtburchak), tower(minora), house(uy), castle(saroy), garden(bog').

XULOSA.

Ingliz tilida shakllar, ranglar va raqamlar bilan tanishtirish uchun "Bloklar yoki legolar bilan o'ynash" kabi mashg'ulotlardan foydalanish bolaning tasavvur va ijodiy qobiliyatlarini oshirishda samarali ekanligini isbotlaydi. Bu o'yinlar orqali bolalar nafaqat jismoniy malakalarini oshiribgina qolmay, balki aqliy xushyorligini ham shakllantiradilar. Bunday tadbirlar bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga, ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga, e'tiqodini mustahkamlashga yordam beradi. Bloklardan qurish kabi o'yinlar bolalarga shakllar, o'lchamlar, balandliklar, uzunliklar, vertikal va gorizontal yo'nalishlar kabi tushunchalarni o'rganishga yordam beradi. Bolalarni erta yoshdan o'yin va turli o'quv mashg'ulotlari orqali chet tillari bilan tanishtirish til ko'nikma va malakalarini oson o'zlashtirish va o'zlashtirishga yordam beradi. O'quv o'yinlari nafaqat bolalarning bilim va ko'nikmalarini shakllantiradi, balki ularning jismoniy salomatligi, aqliy salomatligi, o'ziga ishonchi va ijtimoiy o'zaro munosabatlariga hissa qo'shadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Iriskulov A.T va boshqalar Kids' English pupil's book 2sinf –Toshkent —O'zbekiston;2014

2. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va boshlang'ich maktab o'quvchilariga chet tilini o'rgatishda o'yinlar. Baxramova M.D. Tuzuvchi: Baxramova.M.D.,—T.2016.

3. Xoshimov O'. Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. T., - 2003

Veb-sayt:

1. https://eacea.ec.europa.eu/national-policies/eurydice/content/teaching-and-learning-early-childhood-education-and-care-8_en. internet resurs

3. <https://www.britishcouncil.org/voices-magazine/how-young-children-learn-english-through-play> internet resurs

4. <https://www.parents.com/baby/development/intellectual/how-to-teach-your-child-a-foreign-language/> internet resurs



Ingliz tilini boshlang'ich sinflar kesimida o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Xudoyqulova Nilufar Rahimqul qizi

Ilmiy rahbar: Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Filologiya fakulteti Ingliz tili

fani o'qituvchisi

Mohinur Qayumova Murodullayevna

mohinurqayumova2606@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar usullarni qo'llash natijasida, o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanishi, nutqi ravonlashishi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanishi, bilimga ishtiyoq uyg'otishi, darslarga puxta hozirlik ko'rishga intilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy, innovatsiya, boshlang'ich, o'yin, ta'limiy, ta'lim, "Quvnoq topishmoqlar", "Rasmi" o'yin, "Rasmdagi gaplar" o'yini.

Abstract: In this article, as a result of the use of modern approaches and innovative methods in teaching English in primary grades, the development of students' logical thinking skills, fluency in speech, the formation of the ability to quickly and correctly answer, and the desire for knowledge it is reported that he tries to prepare well for classes.

Keywords: modern, innovation, elementary, game, educational, educational, Fun Riddles, Picture Game, Picture Word Game.

Kirish.

Bolalar xorijiy til bilan ilk tanishishni salomlashish madaniyati, ranglar va kundalik so'zlarni dialog shaklida o'rganishdan boshladilar. Shubhasiz, mamlakatimiz ta'lim dargohlarida xorijiy tillar xonalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va o'qitishning ilg'or texnik vositalari bilan jihozlash, teleradiokanallarda bolalar va o'smirlarni xorijiy tillarga o'rgatuvchi ko'rsatuv va eshittirishlarni berib borish, boshqa mamlakatlar tarixi va madaniyati, jahon ilm-fani va texnik yangiliklariga bag'ishlangan ilmiy-ommabop xorijiy badiiy va multiplikatsion filmlarni o'zbekcha subtitr yordamida muntazam namoyish etish yoshlarimizga dunyo xalqlarining o'tmishi, madaniyati, ilm-fani bilan yaqindan tanishish imkonini berdi.



Adabiyotlar tahlili

Boshlang'ich sinflarda, ayniqsa, birinchi sinfda o'quvchilarga chet tillarni o'rgatishda o'quvchining yoshi, fiziologik, psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Qarorda ta'kidlanganidek, birinchi sinflarda o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida chet tillarini o'rgatishni amalga oshirish, haqiqatan, kichik yoshdagi o'quvchilarga mosligidir. Ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish, eng samarali vositalardan biridir. O'yin davomida ularning tafakkuri, dunyoqarashi, fikrlashi kengayib boradi. Olimlar ta'limga o'yin orqali yondashuv ta'lim jarayonida osonlashtiradi, deb hisoblagan. Nafaqat osonlashtiradi, balki bu fanga qiziqishini kuchaytirib, bolani chuqur bilim olishiga undaydi. O'yin tarzidagi darslar bolalarning og'zaki nutqini rivojlanishiga yordam beradi. Birinchi sinf o'quvchilari rasmi yoki videoli turli ko'rishlarni juda yaxshi ko'rishadi. Turli xil rangli rasmlar orqali, ularning nutqlarini o'stirishda o'yinlardan muntazam foydalanib turish lozim. Masalan, Bu nima?, Bu kim?, Kim ko'p so'z biladi?" kabi o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin jarayonida bolalarning so'zlarni eslab qolishi, to'g'ri talaffuz etishiga qarab rag'batlantirib borish zarur. Bolalarning so'z boyliklarini ortib borishiga qarab boshqa turdagi o'yinlar, turli xil musobaqalarni tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarga dastlab "Meva nomlari", "Kasblar", "Uy jihozlari" kabi mavzulardagi mashqlarni o'yinlar yordamida bajartirish mumkin. So'ngra ular kompyuterdagi rang-barang tasvirlarga uyg'un holatda ko'rsatilsa, o'quvchilarning nutqi rivojlanib, atrof-muhitga munosabat doirasi kengayadi. Yangi mavzuni namoyish etish bosqichida ekranda so'zlar va uni aks ettiruvchi rasmlar paydo bo'ladi. O'quvchilar so'zlarni tinglab, ularni talaffuz etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Mavzuni kompyuter yordamida taqdim etishda ta'limni individuallashtirish printsipiga e'tibor berish lozim. Ayrim o'quvchilar so'zning grafik, ayrimlari esa tovushli obrazni qabul qilishda qiyinchilikka uchraydilar. Kompyuter u yoki bu qiyinchilikni mashqlar vositasida bartaraf etib, o'quvchining ingliz tilidan o'zlashtirishga qiynalayotgan jihatlarini topishga va ularni bartaraf etishga yordam beradi.

Ikkinchi sinfdan boshlab grammatikani o'zlashtirishga qaratilgan boshqa ta'limiy o'yinlarni ham tashkil etish mumkin. Masalan, "Kim savodxon?", Kim zukko?, "Men kimman?", "Zanjir", "Rolli o'yin", "So'z o'rnini top kabi qiziqarli o'yinlar shular jumlasidandir. "Kim zukko?" o'yini imlo savodxonlikni oshirishda yaxshi natija beradi. Bunda karton qog'ozga 5-6 ta so'z yozilgan bo'lib, so'zlar to'g'ri va noto'g'ri yozilgan bo'ladi. O'quvchilardan noto'g'ri yozilgan so'zni topib, to'g'ri yozib berish talab qilinadi. Qaysi o'quvchi noto'g'ri yozilgan so'zlarni to'g'ri va birinchi bo'lib yozib berishga qarab o'yin g'olibi aniqlanadi.

Metodologiya.

Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jaroyonida o'quvchi sub'ekt bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilari Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda, quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelmoqda:

“Quvnoq topishmoqlar” (Merry riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish. Ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar. “Tezkor javob” (Quick answers) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi. “Chigil yozdi” (Warm-up exercises) o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o'yinlardan foydalanish. “Pantomima” (Pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, o'quvchilar charchagan paytda foydalanilsa bo'ladi. “Hikoya zanjiri” (A chain story) usuli o'quvchilarning og'zaki nutqini oshirishda va xotirani mustahkamlashda yordam beradi. “Rolli o'yinlar” (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo'llanilishi mumkin “Rasmlar so'zlaganda” (When pictures speak) usuli ancha qulay bo'lib, ingliz tilini o'rgatishda, o'quvchilarning o'g'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim. “Kviz kartochkalari” (Quiz cards) o'quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma o'quvchilar bir vaqtda darsda ishtirok etish imkonini beradi bu esa vaqtni tejaydi.

“So'z o'rnini top” o'yinida so'zlarning o'rnini almashtirib qo'yiladi hamda so'zlarni o'z o'rniga to'g'ri qo'yish orqali gap hosil qilinadi. “To'plam” o'yini ma'lum bir mavzu asosida o'quvchilarning olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. O'yin qatorlar musobaqasi yoki kichik guruhlarda ishlash shaklida tashkil etiladi. Masalan, belgini bildirgan so'zlarni toping deb, guruhlarga topshiriq beriladi. Berilgan vaqt ichida qaysi guruh ko'p topa olsa g'olib bo'ladi. Multfilmlar. Bolalar chet tilini o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, multfilmdagi qahramonlarning harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga harakat qiladi. Bu esa bolalar uchun til o'rganishda qiziq va samarali yo'l hisoblanadi. Bolalar uchun ingliz tili qo'shiqlaridan tortib she'r va hikoyalar, videoroliklar orqali o'rgatib kelinmoqda.

“**Rasmlı**” o'yin. O'quvchilar Present Continuous tarkibini yaxshiroq o'zlashtirishlari uchun rasmlı o'yinni qo'llash mumkin. O'quvchilarga hali ko'rmagan rasmlaridagi personaj nima qilayotganini topish taklif etiladi. Masalan, P1: Is the girl sitting at the table? P 2 : No, she is not.

P1: Is the girl standing?

P 2:: Yes, she is

Rasmda ifodalangan harakatni to'g'ri topgan o'quvchi g'olib xisoblanadi. U boshlovchi bo'lib boshqa rasmni oladi.

“Rasmdagi gaplar”o’yini. Bu o’yin grammatik formalarni mashq qildirish uchun yaxshi ko’rgazmali vosita hisoblanadi. Kartalarda odamni qandaydir harakatlarini ifodalovchi bir necha rasmlar bor, masalan: konkida uchayotgan, shaxmat o’ynayotgan, kitob o’qiyotgan rasmlar bor. O’qituvchi rasmlarni ko’rsatadi (bola konkida uchayapti) va so’raydi: What is he doing? O’quvchilar o’zlarida xuddi shunday rasmni topadilar va javob beradilar: He is skating.

Xulosa o’rnida ta’kidlash joizki, ingliz tilini o’qitishda o’quvchilarni yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ulardagi chet tilini o’zlashtirishga bo’lgan qiziqish, ehtiyojni to’la qondirishga yordam beruvchi pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy didaktik ishlanmalarni tayyorlash va ularni amalga oshirishning mustahkam mexanizmini ishlab chiqish muaommoning amaliy yechimini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda «CHet tillarini o’rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi PQ-1875-sonli qarori.

2. Iriskulov A.T va boshqalar Kids’ English pupil’s book 2sinf –Toshkent —O’zbekiston;2014

3. Passov Ye.I. Kommunikativniy metod obucheniya inoyazichnomu govoreniy u. M.: Prosvechenie,1991


4. Qayumova, Mohinur Murodulayevna. "THEORETICAL-METHODOLOGICAL ANALYZE OF COSMOS AND INDIVIDUAL ON CONTEXT OF EXPERIMENTAL SCIENCE." Интернаука 28 (2018): 77-79.

5. rgashovna M. G. TYPES OF FABRICS AND THEIR ANALYSIS //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 59-61.

6. Qayumova, Mohinur Murodulayevna, Muhlisa Sobirjonovna Sobirjonova, and Feruz Qurbonaliyevich Saidov. "Galileo’s influence on John Milton concept “individual”. Similarities and differences between the outlook of Galileo and John Milton." Science and Education 2.6 (2021): 494-498.

4. Xoshimov O‘. Yoqubov I. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. T., - 2003

7. Vyatyutnev M.N. Obuchenie inostrannomu yaziku v nachalnoy shkole. /inostranniy yazik v shkole, 1990



Maktabgacha boʻlgan yoshdagi bolalarda chet tillarini oʻqitishning ilmiy pedagogik asoslari

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti Boshlang'ich talim yo'nalishi
5-BT-22 guruh talabasi **Ismayilova Gulshoda**
Tel:+99897 350 11 14

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich ta'limdagi bolalarga ingliz tili o'qitishning zarurat ekanligi asoslanib, chet tilini o'qitish boshlang'ich ta'lim yoshidan boshlab amalga oshirishning afzalliklari haqida fikr yuritilgan bo'lib, boshlang'ich ta'lim yoshdagi bolalarga chet tili o'qitishning eng zamonaviy va samarali usullari sifatida o'yin texnologiyasi, axborot-kommunikatsiya vositalari va multfilmlardan foydalanish imkoniyatlari haqidagi mulohazalar keltirilgan. Bu esa, o'z navbatida, tegishli chet til o'qitish texnologiyasini qo'llashni taqozo etadi. Bundan tashqari ushbu maqolada maktab o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatish usullari, ularni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish haqida so'z boradi. Dars jarayonida o'quvchilar diqqatini jamlash, yangi so'zlarni yodlatish usullari, turli xil shunga o'xshash o'qitish metodikalari ifodalangan.

Kalit so'zlar: pedagog, xorijiy tillar, o'qituvchi mas'uliyati, 3 4 5 6 so'z metodi, yashil ruchka, 80/20 usuli, texnologiya, multfilm, kommunikatsiya, Shexter usuli.

Abstract. Based on the necessity of teaching English to children in primary education, this article discusses the advantages of teaching a foreign language from the age of primary education, and the most modern and effective method of teaching a foreign language to children of primary education age. comments on possibilities of using game technology, information and communication tools and cartoons are presented as methods. This, in turn, requires the use of appropriate foreign language teaching technology. In addition, this article talks about ways to teach English to schoolchildren, to increase their interest in the lesson. In the course of the lesson, methods of concentrating students' attention, memorizing new words, and various similar teaching methods are presented.

Key words: pedagogue, foreign languages, teacher's responsibility, 3 4 5 6 word method, green pen, 80/20 method, technology, cartoon, communication, Schechter's method.

KIRISH.

Olimlarning fikricha ingliz tilini o'rganishni ancha ertaroq boshlashni tavsiya etadi. Bundan tashqari hozirgi kunda ingliz tili eng rivojlangan tillar sirasiga kirmoqda. Ingliz tili insonning har bir bosayotgan qadami uchun kerak bo'lmoqda. Shu sababli, 2015-yildan boshlab O'zbekistondagi barcha oliy yurtlarda hamda maktablarda ingliz tili fani

o'qitila boshladi. Ingliz tilini ko'plab insonlar, ayniqsa, yoshlar qiziqib o'rganishmoqda. O'qituvchi orqali fan seviladi deganlaridek, fanlarning qiziqarli bo'lishi, dars jarayoni samarali o'tishi, bularning barchasi albatta o'qituvchiga va uning o'qitish metodikasiga bog'liq. Chet til – bu xorijiy mamlakat tilidir. Respublikamizda G'arbiy Yevropa tillari va Sharq tillari o'qitilib kelinmoqda. Bu tillar ta'lim muassalarining o'quv rejalaridan o'rin olgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, chet tillarini o'rganish rivojlandi va yoshlar uchun ko'plab kitoblar sotib olindi. Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun imkoniyatlar tillarni mukammal bilishning ahamiyatini oshirishning hojati yo'qdir. Hozirgi kunda barcha bilim yurtlarida ingliz tili fani darslik sifatida kiritildi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'qituvchi orqali fan seviladi. Bunda o'qituvchi o'z darsiga mas'uliyatli bo'lishlari kerak. Ya'ni darsga kirishda yaxshi kayfiyat bilan kirishi va o'quvchilarga mehribon bo'lishi kerak. Albatta bu o'quvchilar kayfiyatiga va darsga bo'lgan qiziqishlariga ta'sir qiladi. Bundan tashqari o'quvchilarni darsga qiziqtirish va ingliz tilini yaxshi o'rganishlari uchun ko'plab metodikalar mavjud. Masalan, barchamizga ma'lumki, pedagoglar o'quvchi xatolarini qizil ruchkada tekshirishadi. Aksincha, o'qituvchilar yashil ruchkada ularning to'g'ri yozilgan so'zlarini tekshirishsa va ularni rag'batlantirsa, ya'ni e'tiborni kamchilikka emas yutuqqa qaratsa, albatta, o'quvchida o'ziga bo'lgan ishonch va bu fanga bo'lgan qiziqish ortadi. Bundan tashqari yana, o'quvchilar fikrini jamlashi uchun 3 4 5 6 metodikasi ham qo'l keladi. Ya'ni, dars boshida doskaga 3 4 5 6 ta katakli jadval chiziladi hamda ulardan o'tgan dars yodlagan so'zlarini shu katak ichiga joylashtirish so'raladi. Albatta, bu metodika o'quvchilar diqqatini jamlashga va o'tgan mavzuni eslab olishga yordam beradi. Yana bir metodikalardan biri bu 80/20 usuli. Bu usul pedagoglar uchun judayam foydali. Bu o'quvchilarni to'g'ri yo'naltirishga va bilimini oshirishga yordam beradi. Misol uchun, tadbirkorlarda bir gap bor: mijoz 20 foiz ,tadbirkor 80 foiz gapirsa, bunda tadbirkor 30 foiz natijaga erishadi, aksincha, tadbirkor 20 foiz, mijoz esa 80 foiz gapirsa bunda tadbirkor 100 foiz natijaga erishadi. Bu yerda o'qituvchi 80 foiz o'quvchilarning faolligini oshirishi, 20 foizi esa ularni yo'naltirib turishini bildirmoqda. Shunda 100 foiz o'quvchi darsni yaxshi o'zlashtiradi. Ma'lumki, erta yoshdagi bolalarning chet tilini o'zlashtirish imkoniyatlari chinakamiga beqiyosdir. Hatto K.D.Ushinskiy ham shunday deb yozgan edi: "Bola biz bir necha yil ichida o'rgana olmaydigan darajada chet tilini bir necha oyda o'rganadi". Boshlang'ich

ta'lim ta'lim yoshidagi bolalarga chet tilini o'qitishda quyidagi o'yinlardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Vaziyatli o'yinlar;
2. Raqobatbardosh o'yinlar;
3. Ritmik musiqiy o'yinlar;
4. Badiiy-ijodiy o'yinlar .

Vaziyatli o'yinlar - u yoki bu sabablarga ko'ra aloqa vaziyatlarini simulyatsiya qiladigan rol o'ynash o'yinlarini o'z ichiga oladi. Rol o'ynash bu bolalarning muayyan rollarini bajarish, turli xil hayotiy vaziyatlar o'ynaladigan o'yin faoliyati hisoblanadi. Masalan, sotuvchi - xaridor, shifokor -bemor va boshqalar. Raqobatbardosh o'yinlar - lug'at va savodxonlikni targ'ib qiluvchi ko'pgina o'yinlarni o'z ichiga oladi. Bu turdagi o'yinlarga krossvord, kim oshdi savdolari, buyruqlarni bajarish va shu kabi o'yinlar kiradi. Ritmik musiqiy o'yinlar - bu har qanday an'anaviy o'yinlardan farqli ravishda , masalan, sheriklar tanlovi bilan raqs tushadigan o'yinlar bo'lib, bu muloqot qobiliyatlarni o'zlashtirishga emas, balki nutqning fonetik jihatlarini yaxshilashga yordam beradigan o'yinlar sirasiga kiradi. Badiiy - ijodiy o'yinlar - bunday o'yinlar bolaning badiiy ijod chegarasida turgan faoliyat turi bo'lib, bunday o'yinlar orqali bolalarning ichki dunyosini kashf qilish mumkin. Bunday metodikalardan tashqari multfilmlar ham bolalar uchun ingliz tilini o'rganishda eng yaxshi yordamchi hisoblanadi. Bolalar multfilmlarni yaxshi ko'radilar va ularni ketma-ket tomosha qilish ularga pozitiv kayfiyat bag'ishlaydi. Shuning uchun ingliz tilidagi multfilmlar bir vaqtning o'zida bolalarning pozitiv-kommunikativ sifatlarini shakllantirish bilan birga chet tilini o'rgatishning ko'plab muammolarini hal qilishga yordam beradi.

Boshlang'ich ta'lim ta'limda ingliz tilini o'rganish "Shexter" usuli, ya'ni "nazariydan amaliyotga" klassik modelga emas, balki teskari, tabiiyroq idrok tizimiga asoslanadi. Bunda bolalarga ona tilimizni o'rgatishimiz juda qulay. Yosh bolalar qanday gapirishni bilmaydilar. O'qituvchilar tomonidan kerakli jumlar va nutq qismlarini qurish qoidalarini tushuntirilib, didaktik o'yinlar orqali ingliz tilini zamonaviy usullarda o'rgatiladi. Ingliz tilining ushbu texnikasi uch bosqichdan iborat: birinchidan so'zlar va iboralar, ikkinchi va uchinchi bosqichda grammatik va sintaktik tuzilmalardan foydalanish samaradorligi pedagog va psixologlar nuqtai nazaridan eng muvaffaqiyatlilardan biri hisoblanadi. Bu usulning boshidanoq bolalar bilan ingliz tilida ishlashning ma'lum bir uslubini rivojlantirish, muloqotning eng odatiy holatlariga mos keladigan so'zlardan foydalanish kerak. Bunday so'zlar (salomlashish, xayrlashish, qisqa mashqlar, ingliz tilida qabul qilingan xushmuomalalik formulalaridan foydalanish) bolalarga chet tili aloqasini

o'rnatishga imkon beradi, ingliz tiliga o'tishni osonlashtiradi, bolalarga dars boshlanganligini, endi darsning ma'lum bir bosqichi o'tishini ko'rsatadi. Metodning muvaffaqiyatli bo'lishining eng muhim sharti bolalarning nutq-fikrlash faoliyatini faollashtirish va ularni chet tili muloqotiga jalb qilishdir.

MUHOKAMA

Bolalarda ingliz tilini o'qitishda o'quvchilarni yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ulardagi chet tilini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, ehtiyojni to'la qondirishga yordam beruvchi pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy didaktik ishlanmalarni tayyorlash va ularni amalga oshirishning mustahkam mexanizmini ishlab chiqish muaommoning amaliy yechimini ta'minlaydi.

Yosh bolalarni ingliz tilini o'rganish uchun qiziqarli va rag'batlantiruvchi turli vaziyatlar hosil qilish va bolalarni unda faol ishtrok etishlarini ta'minlash barcha mavjud imkoniyatlardan foydalanish ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Bolaning tayyorligi har qanday bola alohida shaxs individ hisoblanadi, tabiiyki ulardagi rivojlanish bosqichlari ham bir biridan farq qiladi. Psixologlarning fikricha bolani erta yoshdan gapirishga majbur qilish yoki uni tengdoshlariga qiyoslab rivojlantirishga harakat qilish ko'p hollarda aks ta'sirini beradi va yaxshi bo'lmagan natijalarga olib keladi. Maktab yoshidagi bolalarga chet tilini o'rgatishda psixologik-pedagogik xususiyatlarni, ya'ni ularning qiziquvchanliklarini va serhafsasaliklarini inobatga olish lozim. Shuningdek, bolalar uzoq muddat davomida o'z diqqatlarini bir turdagi faoliyatga qarata olmasliklarini yodda tutish zarur.

Xulosa.

Pedagoglar o'quvchilariga shu kabi metodikalarni qo'llashsa, dars judayam qiziqarli hamda o'quvchi uchun juda foydali bo'ladi. Darslar qanchalik qiziq bo'lsa, o'quvchi darsga emas, xuddiki dam olishga kelgandek u fanni maroq bilan o'rganadi. Shu sababli, o'qituvchilar bu metodlardan foydalanishlari lozim. Shunday qilib boshlang'ich ta'lim yoshdagi bolalarga chet tilini o'qitishda o'yin texnologiyasidan foydalanish va axborot - kommunikatsiya usullaridan foydalanish bolalarning proksimal rivojlanish zonasiga yo'naltirilgan bo'lib, pedagogik maqsadni bola uchun jozibali faoliyat motivi bilan birlashtiradi. Boshlang'ich ta'lim yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatishda yoshiga mos ijodiy va didaktik o'yinlar va ochiq mashg'ulotlar bilan ularning shaxsiy kamolotini zamonaviy usullar asosida shakllantirish mumkin. Ta'limda har bir mashg'ulotning yangicha axborot texnologiyalari va kompyuter qurilmalaridan muvaffaqiyatli foydalanish, ko'rgazmali materiallardan bolalar uchun foydali maxsulotlarni tadbqiq qilish

va natijasini mustahkamlash o'quvchi bilimni mustahkamlash uchun eng zo'r usul hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muminova F.M. "Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish,,

2. "O'QITUVCHI" NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI . Toshkent 2012.


3. David A. J, Eggen, P Kauchak. O'qitish usullari. Talabalarning bilim olishini targ'ib qilish[M] 2002.

4. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi.-T.:O'qituvchi,2016 y.

Veb-sayt:

1. . "Tafakkur manzili" internet web-sahifasi.

2. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES google web – site.



Maktabgacha bo`lgan yoshdagi bolalarda chet tillarini o`qitishning ilmiy pedagogik asoslari

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich talim yo'nalishi

*5-BT-22 guruh talabasi **Nomozova Muharram Boynazar qizi***

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning chet tilini o'rganishi haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

Kalit so`z: Texnologiya, metod, o'qitish, bolalar, malakali, samarali ta'lim.

Аннотация: В данной статье приводятся отзывы об обучении иностранному языку детьми дошкольного возраста.

Ключевые слова: Технология, метод, обучение, дети, качественное, эффективное образование.

Abstract: This article provides feedback on foreign language learning by children of preschool age.

Key word: Technology, method, teaching, children, qualified, effective education.

Kirish.

Maktabgacha ta'lim -yoshlarimiz ta'limi va tarbiyasining ilk bosqichi hisoblanadi. To'g'ri maktabgacha tarbiya dasturi bizning bolalarimizga noyob aqlga mos keladigan tarzda o'sishi va o'rganishiga yordam berishi kerak. Ammo bolalar kattalarnikidan farqli ravishda kelajakni, ertani o'ylab o'rganishmaydi. Ingliz tilidagi dars «shu yerda va aynan hozir» manosida o'tkazilishi kerak. Bolalar chet tilini hikoyalarni tushunish yoki o'yinlarda g'alaba qozonish orqali osonroq o'rganadilar. Agarda xohlasalar, o'zlari ishtirokidagi o'yinlar orqali o'rgangan ma'lumotlarini mustahkamlab oladilar. Bir tomondan, til bilan ifodalangan kontent bolalar hayoti, kundaligi bilan bog'liq bo'lishi kerak, boshqa tomondan, bolalarni muloqotga chorlaydigan faoliyat yoki vazifalar qiziqarli va muhim bolishi kerak.

Adabiyotlar tahlili.

O'quvchilar dars davomida o'zlarini darsning bir qismi sifatida tushunishadi va dars jarayonida huddi asar qahramonidek o'zlarini tutishadi, harakat qilishadi. Boshlang'ich sinflarda, odatda, chet tillarni o'rganish hayotiy situatsiya va o'yinlarga asoslangan harakat usullaridan foydalangan tarzda o'rganilganda juda samarali hamda muvaffaqiyatli bo'ladi. Agar o'yinli-syujetli situatsiyalar orqali chet tili o'rgatilsa, barcha bolalar bajonu-dil ishtirok etishadi, sababi ular shu tarzda o'sha situatsiyaning bir bo'lagi ekanligini his etishadi. O'quvchilar chet tili bilan, birinchi navbatda, o'z

sinf xonalarida birga "yashaydilar". Shuning uchun sinfda muloqot imkoni bo'lsa, o'sha chet tilida bo'lishi kerak. Bolalar nafaqat yor'riqnomalarni tushunish bilan cheklanib qolmasdan, balki chet tili orqali o'z ehtiyojlarini ifodalashlari ham mumkin. Shu nuqtai nazardan, ingliz tilida gaplashadigan shaxs (ona tili bo'lgan)lar bilan muloqot qilishi, sinfga taklif etish ham foydali hisoblanadi. Konstruktiv yondashuvga ko'ra, bolalar imkonqadar ko'proq tilda o'zlari so'zlar mazmunini, qoidalarni bilib olishlari kerak. Bu shuningdek, ularning asosiy fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga yordam beradi. Barcha o'quvchilar singari, bolalar ham turli xil ta'lim uslublariga ega. Bolalar uchun moljallangan ta'lim barcha ta'lim uslublarini hisobga oladi. Taktik va kinestetik o'rganish turlari o'quvchidan alohida e'tibor talab qiladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning iqtidorlari, malakalari, bilimlari va qiziqishlari kengroq boladi. Chet tilini o'rganish, shuningdek, o'rganuvchining yaxshi tushuna olish qobiliyatiga bog'liqdir.

Metadologiya.

Bolalar tez o'rganishadi, lekin tezda unutishadi. Shuning uchun, nutqni bir necha bor takrorlab, shu mavzuga doir o'yin yoki tarqatmalar orqali bolalarning esida qolishiga yordamlashish mumkin. Kurslar doim bo'lib, muntazam takrorlashlar ajralmasqismdir. Xorijiy tillarni muvaffaqiyatli o'rgatish keng qamrovli usullarni talab qiladi. Bunga yana bir misol sifatida, bolalarga ingliz tilidagi yoki o'zlari o'rganayotgan tildagi "listening" ya'ni eshittirishlarni qo'yib berish hamda bu bolaga qanchalik ta'sir qilishini kuzatish zarur. Agar ularga bu eshittirishlar tushunarsiz bo'lsa undanda osonroqlarini tinglatish zarur. Shuningdek "listening" dagi so'zlarni avval tarjimasini yozdirib ularga ma'nosini tushuntirish hamda nutqiy faoliyatda qanday qo'llanilishini tushuntirish lozim. Har qanday bola alohida shaxs individ hisoblanadi, tabiiyki ulardagi rivojlanish bosqichlari ham bir biridan farq qiladi. Psixologlarning fikricha bolani erta yoshdan gapirishga majbur qilish yoki uni tengdoshlariga qiyoslab rivojlantirishga harakat qilish ko'p hollarda aks ta'sirini beradi va yaxshi bo'lmagan natijalarga olib keladi. Bog'cha va kichik maktab yoshidagi bolalarga chet tilini o'rgatishda psixologo-pedagogik xususiyatlarni, ya'ni ularning qiziquvchanliklarini va serhafsasalaliklarini inobatga olish lozim. Shuningdek, bolalar uzoq muddat davomida o'z diqqatlarini bir turdagi faoliyatga qarata olmasliklarini yodda tutish zarur. Ota -ona o'z farzandini har tomonlama yetuk bo'lishini istaydi va ko'p xollarda bolaning psixologik va fiziologik tayyorligini xisobga olmasdan unga turli fanlardan yuklamalar berishga, til o'rgatishga yoki sport mashg'ulotlariga jalb qilishga xarakat qiladilar. Aksar xolatlarda ota -onalar kutilgan natijaga erisha olmagach, bolaga tanbeh berish yoki

tengdoshlariga qiyoslash orqali bolaga ta'sir o'tkazishga xarakat qiladilar. Ammo bu ikki urinish ham bolaning o'rganishga bo'lgan rag'batini susaytiradi va atrofdagi narsalarga bo'lgan qiziqishini so'nishiga sababchi bo'lib qoladi. Bunday ko'ngilsiz holatlarni oldini olishda ota -ona va tarbiyachilarning roli beqiyosdir. Bolaning erkin fikrlashga o'rgatish, undagi qiziquvchanlikni va atrofni o'rganishga bo'lgan rag'batni kuchaytirish, bolaning tasavvurini boyitish, ijodkorligini yuzaga chiqarishni eng oson va maqbul yo'li bu o'yindir. Bolalar o'ynashganda ular o'z g'oyalarini amaliyotga tatbiq qiladilar, farazlarni sinovdan o'tkazadilar, zaruriy ko'nikmalarni egallaydilar, o'z tasavvurlaridan foydalanishadi va o'zlarining dunyolarini kashf etishadi .

Xulosa.


Umumiy qilib aytganda, aslida chet tilini o'rganishni bolaning juda ham yosh davirlardan boshlagan ma'qul hisoblanadi. Kichik yoshdagi bolalarning miyya faoliyati to'xtovsiz o'sish rivojlanishda davom etayotgani uchun ular miyya faoliyati to'liq shakllanib bo'lgan, katta shaxslarga nisbatan yangi ma'lumotni ancha tezroq qabul qilish qobiliyatiga egadirlar. Ushbu o'ziga xosliklarni inobatga olgan holda darsni rejalashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga chet tilini o'qitishda asosan o'yin, rasmlar, qo'shiq va she'rlardan, multfillardan foydalanish samarali usul hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida bizdan barcha o'rgatiladigan narsalarni shunga ko'ra tasvirlashni talab etadi. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bolalarning qiziqishi ularning kundalik hayotda bajarayotgan ishlariga, o'yinlariga asoslanadi. Shuning uchun ilmiy yo'nalishni ham kundalik yumushlarga, qiziqishlarga bog'labo'rgatish pedagogning mahoratiga bog'liq.

Foydanilgan adabiyotlar:

1.M. Berdiyeva, S. Bo'ranova Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda nutq o'stirish mashg'ulotlari orqali bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning samarali usullari.

2.<https://blog.xabar.uz/post/maktabgacha-ta-lim-jarayonida-xorijiy-tillarni-o-qitishning-zamo>

3. <https://goaravetisyan.ru/uz/sekrety-obucheniya-doshkolnikov-angliiskomu-vozzrastnye/>



**BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING INNOVATSION
USULLARI**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

*2- bosqich talabasi **To'rayeva Oqila***

Ilmiy rahbar: Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili

fani o'qituvchisi

Turdialiyeva Shahnoza

Tel: +(998) 88 194 6005

Email: turayevaoqila75@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitishda innovatsion yondashuvlar o'quvchilarning erkin fikrlashi, nutqiy teranliklari, hozirjavobliklari, til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi, darslarda faol qatnashishlari uchun o'qituvchi muallimlar tomonidan ilgari surilayotgan zamonaviy usullar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, grammatik struktura, leksik birlik, fonetik o'zgarishlar, boshlang'ich ta'lim.

ABSTRACT

This article discusses innovative approaches to teaching English in secondary schools, modern methods put forward by teachers for students to think freely, depth of speech, responsiveness, passion for language learning, active participation in lessons. referred to.

Keywords: Innovation, grammatical structure, lexical unit, phonetic changes, primary education.

KIRISH

Bugungi kunda yosh avlodning xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz-tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishi ortib bormoqda. Shu boyis, umumta'lim maktablarida bu tilni chuqurroq o'rgatish uchun pedagog xodimlardan innovatsion usullardan keng foydalanish talab etilmoqda. Shu sababdan, 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi hamda 2013—2014 yildan boshlab umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni uzluksiz o'rgatishning joriy etilishi buning yaqqol isbotidir. Ingliz tili jahon tili sifatida

deyarlibarcha sohalarda eng kerakli til sifatida namoyon bo'lmoqda, shu sababli nafaqat boshlang'ich sinflarda, iqtisodiy, fan, va madaniy jihatdan rivojlangan davrlarning tillarini o'rganish jahon ilm-fani va taraqqiyoti yutuqlarini egallashning bosh omili ekanligini to'liq anglagan holda yuqori sinf o'quvchilari doirasida ham kasb tanlashlarida albatta tilning ahamiyatiga katta e'tibor qaratilmoqda. Boshqa sohalar singari til o'rganish ham o'quvchi yoshlarning zehni bilan birgalikda yosh davrlariga ham bog'liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR


Kichik yoshli bolalarda til o'rganishga bo'lgan xohish-istak juda yuqori, ayniqsa hozirgi axborot kommunikatsiya vositalari bilan bu holat yuqori ko'rstkichlarni ko'rsatmoqda. Davlatimiz tomonida maktablarda yaratilgan shart-sharoitlar, o'quv xonalarining zamonaviy texnologiyalar bilan johzlanganligi, yosh bilimli kadrlar bilan ta'minlanganligi, maktab drslaridan tashqari mustaqil shug'illanish uchun barcha sinflar uchun online telekanallardagi televizion online darslarning tashkil etilganligi tahsinga sazovordiz. 1 va 2- sinf o'quvchilari tildagi grammatik, leksik, fonetik, birliklarni tushunmasliklari mumkin ammo multfilmlar, o'yinlar, rasmlar orqali tilni a'lo darajada o'zlashtirishlari mumkin. Shunga ko'ra grammatikada asosan ikki xil usuldan unumli foydalaniladi

- Inductive
- Deductive

Induktiv usulda o'quvchilarga avval grammatik qoidalar tushuntirilib so'ngra misollar orqali mustahkamlanadi. Bu usul ko'pincha yuqori sinf o'quvchilari uchun foydali. Masalan zamonlar, predloglar, artikllar yuqori sinf o'quvchilari uchun ma'lum termenlar bo'lib ular gaplarda ega, kesim aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol kabi gap bo'laklarini qo'yib gap tuza olishadi. Deduktiv usulda avval ma'lum o'yinlar, mashqlar orqali mavzu tanishtirilib, so'ngra qoidaga bog'lab tushuntiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ega, kesim, fe'l va boshqa birliklar haqida ma'lumotga ega bo'lmaganliklari sababli ularga o'yinlar qo'shiqlar orqali mavzu tushuntirish samaraliroq. Masalan Can –ingliz tilida “qila olmoq” modal fe'li bo'lib qo'shiqlar handout materiallar orqali o'rgatiladi.

- Can you play football
- Can you phone call
- It is very easy
- Can you do it Nansy?

Psixologlar fikriga ko'ra yoshi katta insonlarga nisbatan bolalarda yangilikka qiziqish, o'qish, o'rganishga bo'lgan ishtiyoq 70-80% kuchliroq bo'lar ekan. Kundalik hayotimizda ham bajara ololmaydigan vazifalarni ham bolalar



ogohlantirishlargaqaramasdan bajarib ko'rishga harakat qilishadi. Bir xillikdan juda tez zerikishadi shu sababli pedagog kadrlardan yangicha uslublarda, noan'anaviy tarzda darslarni tashkil etish, o'rganilayotgan xorijiy tilning muhitini to'liq yarata olish talab etiladi.

MUHOKAMA

Ingliz tilini o'qitishdagi yana bir muhim jihat shuki o'quvchining qay holatda ma'lumotni to'laqonli qabul qilishini nazorat qilish. Bir guruhdagi bolalarning o'y xayollari, fikrlashi, dunyoqarashi ma'lumotni qabul qilishi turlicha bo'ladi. Shunga ko'ra o'qituvchi har bir o'quvchining xarakteri xususiyatidan kelib chiqqan holda ta'lim jarayonini olib borishi kerak. Misol uchun, qaysidir o'quvchida ko'z bilan eslab qolish, yana birida eshitish orqali eslab qolish qobiliyati tabiatdan shakillangan bo'lishi mumkin. Shu xususiyatlarga ko'ra ingliz tilini o'rganish asosiy 3 yo'nalishda bo'ladi

- ✓ Visual learning- ko'rish orqali ma'lumotni eslab qolish
- ✓ Auditory learning -eshitish orqali ma'lumotni eslab qolish
- ✓ Kinaesthetic learning- harakatlar orqali ma'lumotni eslab qolish

Yuqoridagi xususiyatlarni inobatga olgan holda o'qituvchi o'quvchilar bilan dars mobaynida, mashqlar bajarishda, rol playlar tayyorlashda, o'yinlar orqali mavzu tushintirilsa yoki tashkillashtirilsa sezilarni natija hosil qiladi va o'quvchida til o'rganishga motivatsiya beradi.


NATIJA

Quyida mana shunday mazmunli dars tashkil etishda darslarda foydalanishimiz muki bo'lgan didaktik o'yinlar va pedagogik texnologiyalardan bir nechtasini ko'rib chiqamiz.

- ❖ Kim tezroq-o'yin maqsadi writing-yozish texnikasini rivojlantirish.

O'yinning borishi:inglovchilarga gaplar yozilgan kartalar beriladi va kartadagi gaplarning so'zlari notartib joylashgan bo'ladi. Kim birinchi va to'g'ri tartibda joylashtirib yozsa shu o'quvchi g'olib bo'ladi. Bu o'yin ko'proq yuqori sinflarda samara beradi.

- ❖ Men kimman?- o'yin maqsadi speaking-gapirish texnikasini rivojlantirish. O'yinning borishi: guruhdagi xohlovchi chiqib biror narsa yoki shaxsni nomini aytmasdan tasvirlaydi va qolgan o'quvchilar ta'rifga ko'ra kim yoki nimaligini topishi kerak. Bu o'yin nutqiy savodxonlikni oshiradi. Bu o'yin ko'proq boshlang'ich sinflarga xos.



❖ Noisy dictation-o'yin maqsadi grammatikani rivojlantirish. O'yinning borishi: Sinfdagi o'quvchilar bir biriga yuzma-yuz qilib joylashtiriladi va vaqt belgilanib bir vaqtda bir birlarini ham eshitib ham ro'parasidagi o'quvchining aytga so'zlarini ilg'ab to'g'ri yoza olishi kerak. Bu o'yin biroz shovqinli bo'ladi va aynan mana shu shovqin ularga hatto shunday vaziyatda ham so'zlarni ilg'ay olishni rivojlantirish imkonini beradi. Listening- eshitish texnikasini oshiradi. Ingliz tilida so'zlar eshitilganidek yozilmaydi, masalan speak-gapirmoq so'zida {ea} diftongi [i] tovushini beradi [spi:k]. Agar o'quvchi so'zlarni to'g'ri anglay olsa demak bu yaxshi natija. Bu o'yin boshlang'ich hamda yuqori sinflarda ham qo'llaniladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, umumta'lim maktablarida ingliz tilini turli sinflar doirasida o'quvchilarni yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ulardagi chet tilini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish va ehtiyojlarini to'liq qondirishga yordam beruvchi pedagogik innovatsion texnologiyalarga asoslangan zamonaviy dars ishlanmalar yordamida dars o'tish o'quvchilarda tilni o'rganish uchun yuqori samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Pulatova M.R. Handwritten copies of «Arba'in»works // Indonesian Journal of Education Methods Development. Volume 8, November 2019. – P. 194-196. ISSN: 0738-0593 (№23, SJIF – 5.083).
2. Muxlisa, Sobirjonova, and Qayumova Mohinur. "LINGVOKULTURALOGIYANING KELIB CHIQISH TARIXI." *Евразийский журнал академических исследований* 2.3 (2022): 379-383.
3. Qayumova, Mohinur Murodulayevna. "THEORETICAL-METHODOLOGICAL ANALYZE OF COSMOS AND INDIVIDUAL ON CONTEXT OF EXPERIMENTAL SCIENCE." *Интернаука* 28 (2018): 77-79.
4. Ergashovna M. G. TYPES OF FABRICS AND THEIR ANALYSIS //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 59-61.
5. Qayumova, Mohinur Murodulayevna, Muxlisa Sobirjonovna Sobirjonova, and Feruz Qurbonaliyevich Saidov. "Galileo's influence on John Milton concept "individual". Similarities and differences between the outlook of Galileo and John Milton." *Science and Education* 2.6 (2021): 494-498.
6. Пассов Э. И. Общительный метод обучения иностранного разговора. — Москва., 1985: — 10 — bet.
7. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. — London., 2001: — 64-bet.
8. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. — Toshkent., 2012: — 48-bet.



Pedagogik ta'lim yo'nalishlarida xorijiy tillarni o'qitishning ahamiyati

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
II bosqich 5BT-22-guruh talabasi

Naimova Diyoraxon

Ilmiy rahbar: Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili

fani o'qituvchisi

Turdialiyeva Shahnoza

Annotatsiya.

Ushbu maqolada bugungi kunda boshlang'ich sinflarda xorijiy tillarni o'qitishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati va qo'llanishi haqida fikr yuritilgan. Ta'lim jarayonida turli interfaol usullarni qo'llashda o'qituvchida mavjud bo'lishi kerak bo'lgan kompetensiyani shakllantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy tillar, pedagogik texnologiyalar, ta'lim jarayoni, kompetensiya, innovatsiya, metod, ta'lim mazmuni.

Kirish

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon barqaror ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga ega yangi demokratik huquqiy davlat qurilishini amalga oshirishning o'z yo'lini tanladi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga muvofiq, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlariga javob beradigan ijtimoiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi deb e'lon qilindi. Mamlakatimizda ta'lim tizimini islah qilish yangi, eng samarali ta'lim usullari, axborot texnologiyalari va imkoniyatlarini izlashni nazarda tutadi. "O'zbekistonda yangi pedagogik va axborot texnologiyalari ta'limning barcha sohalariga - o'quv jarayoni, ma'muriy boshqaruv, ilmiy sohaga joriy etilmoqda" Yangi pedagogik va axborot texnologiyalari sohasidagi yutuqlar uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida samarali o'qitish usullaridan foydalanish imkonini berdi. O'zbekistonda innovatsion yutuqlar uchun barcha darajalarda sifatli ta'lim tizimi bo'lishi kerak. O'qitish va o'rganish tizimini kengaytirish va yangi o'qitish usullaridan foydalanish nuqtai nazaridan yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishning past darajasi hali ham mavjud. Pedagogik va axborot texnologiyalaridan keng foydalanish sizga ko'proq moslashuvchanlik va kam xarajat bilan ta'lim olish uchun kurslarni tanlash, oliy

ta'lim tomonidan taqdim etilgan tegishli mutaxassisliklar mazmunini o'rganish imkonini beradi. "Chet tillarni o'qitishning asosiy maqsadi talabalarning kommunikativ madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, chet tilini amaliy o'rganishga o'rgatishdir". O'qituvchining vazifasi har bir talaba uchun tilni amaliy o'rganish uchun sharoit yaratish, har bir talabaning o'z faoliyatini, ijodkorligini namoyish etishiga imkon beradigan bunday ta'lim usullarini tanlashdir. O'qituvchining ma'suliyati xorijiy tillarni o'qitish jarayonida talabaning bilim faoliyatini faollashtirishdir. Talabalarga xorij tillarini o'qitishda quyidagi metod va usullarni taqdim qilish mumkin. Hamkorlikda o'qitish, loyiha usullari, yangi axborot texnologiyalari, Internet-resurslardan foydalanish, masofaviy o'qitish kabi zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar shaxsiy yo'naltirilgan,

O'qituvchi dars jarayonida pedagogik texnologiyalarni ishlatishda quyidagilarga e'tibor berishi lozim:

- o'quvchilar ongida muayyan mavzu asosida yangi tushunchalarni hosil qilish;
- yangi mavzuga oid qoida, atamalar mohiyatini ochib berish;
- yangi mavzuni o'tilgan mavzular bilan izchillikda yetkazish;
- o'quvchilarning fikrlash darajasini rivojlantirib borish;
- ta'limiy o'yinlarning izchilligi, xilma-xilligi va qiziqarli bo'lishiga erishish;
- shu mashg'ulotning o'zida yangi bilim asosida shakllangan ko'nikmalarini tekshirib borish;
- o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish;
- dars jarayonida o'quvchilar ishtirokini kuchaytirib borish.

Demak, shuni ta'kidlash kerakki, kelajagamiz bo'lgan yoshlarning erkin fikrlovchi, barkamol shaxs bo'lib shakllanishi uchun ularni har tomonlama rivojlantirish zarur. Jumladan, xorijiy tillarni o'rganish darajalari mazkur maqsadni amalga oshirishda o'quvchilarning psixologik, jismoniy va ijtimoiy jihatlarini o'rganib, o'zlarini erkin tutishi va fikrini mustaqil ifodalashda to'siq bo'ladigan salbiy psixologik holatlarni aniqlash va bartaraf etishda qo'llanilishi lozim. Demak, boshlang'ich sinflarda ta'lim oladigan o'quvchilarning o'ziga xos bir qator muammolari mavjud. O'qituvchi ham pedagog, ham psixolog bo'lib qolmasdan, ular bilan ishlash texnikasini ham bilishi lozim.

Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqib, bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitish DTSda ko'rsatilgan «A» bosqich, ya'ni boshlang'ich sinflarni o'z ichiga oladi. Demak, xorijiy til o'qituvchisi 1-2-3-sinflarda ta'lim jarayonida qanchalik ustalik bilan pedagogik texnologiyalardan o'z o'rnida, maqsadli foydalansa, dars samaradorligi yuqori bo'ladi.

Bugungi har bir fan o'qituvchisi o'z fanining xususiyatidan kelib chiqib, ta'lim jarayonida turli interfaol usullardan foydalanmoqda. Bizning yo'nalishimizning maqsadi boshqa fanlardan farqli ravishda noan'anaviy darslarda pedagogik texnologiyalarning turli interaktiv usullaridan foydalanib, kichik yoshdagi o'quvchilarni erkin fikrlashga tayyorlashdir. Davlat ta'lim standartida har bir sinf uchun, masalan, 1-sinf uchun 200 ta, 2-sinf uchun 250 ta so'z va iboralarni o'rgatish maqsadi qo'yiladi, demak, xorijiy til o'qituvchisi pedagogik texnologiyalar asosida yuqorida ta'kidlangan maqsadlarni amalga oshirishi ko'zda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 8 maydagi «Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida»gi 124-sonli qarori boshlang'ich sinflar uchun xorijiy til o'rgatishning A-1 boshlang'ich darajasi qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimida xorijiy tillarni o'rgatish mazkur DTSga muvofiq quyidagi ikki bosqichda amalga oshiriladi:


A-1 daraja: boshlang'ich ta'lim (1-4-sinflar);

A-2 daraja: umumiy o'rta ta'lim (5-9-sinflar).

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga xorijiy til o'qituvchilari nimalarni o'rgatishi, qaysi pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarga eng qulay usullar va uslublar yordamida tilni o'rgatish kerakligini ko'rsatish ta'limning innovatsion yo'nalishlarni tatbiq etishga undaydi. Tilni o'rgatishda o'qituvchi innovasiya - pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimiga kiritish, ta'lim tizimida eng ilg'or texnologiyalarni joriy qilish orqali ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlash, bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishish ta'lim jarayonida bolaga do'stona munosabatlarni shakllantirishga urinish natijasida vujudga keladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari darslarining to'g'ri, aniq, izchil samarali bo'lishi uchun bugungi kunda o'qituvchi quyidagilarga e'tibor berishi lozim.

Birinchi, pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni puxta o'zlashtirishi, ta'limning tushunarlik, izchillik va



kirishimlilik, nazariyani amaliyot bilan bog'lash, ko'rgazmalilik, bugungi kunning yangi yondashuvlari, multimedia o'quvchilarning ongliligini amalga oshirish orqali ta'minlanadi.

Ikkinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilariga faqatgina xorijiy tilni o'rgatishgina emas, balki o'z do'stlari bilan muloqotni tashkil qilish ham muhim ahamiyat kasb etishi lozim.

Uchinchidan, har bir o'qituvchi pedagogik texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishda interfaol usullardan o'z o'rnida foydalanishi zarur.

To'rtinchidan, o'quvchilarning fikrlash faoliyatini shakllantirish uchun o'qituvchi o'quvchilarning fiziologik rivojlanishini hisobga olib, turli didaktik va rolli o'yinlar tashkil etishi lozim.

Beshinchidan, o'qituvchi interfaol usullardan - o'qituvchi va o'quvchi hamda o'quvchilararo birgalikdagi harakatdan foydalanishi kerak.

Oltinchidan, o'quvchilar o'tilgan mavzuni esdan chiqarmasliklarining oldini olish maqsadida takrorlash passiv amalga oshirilmasligi kerak.

Boshlang'ich sinflarda «Dars - muqaddas» kontekstida pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish bugungi kunda muhim, dolzarb hisoblanadi.

TADQIQOT NATIJALARI

Ma'lumki, bugungi kunda ilm-fan, texnika, axborot tizimi shiddatli rivojlanmoqda. O'qish va o'qitishda kundalik faoliyatga qatnashish uchun har tomonlama mukammal bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lishni davrning o'zi talab qilmoqda. Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PK-1875-sonli qarori qabul qilindi. 2012 yildan boshlang'ich sinflarda xorijiy tillar o'qitish muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Ta'lim muassasalarida o'quvchilarga bilim berish bilan bir qatorda xorijiy til

o'qituvchilarining o'zlari ham 2013 yil o'quv yilidan boshlab haftaning juma kunlari - «Xorijiy til o'qitish metodikasi kuni»da tajribali trenerlar yordamida qo'shimcha kurslarda ta'lim olmoqdalar. Demak, o'qituvchilarda xorijiy tillarni zamonaviy talablar asosida o'qitish uchun kompetensiyalar shakllanmoqda.

Bugungi kunda 1-sinfdan boshlab xorijiy tillarni o'qitishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagoglarga pedagogik, psixologik talablar qo'yilmoqda. «O'qituvchi kimni o'qitadi, nimani o'rgatadi va qanday texnologiyalar asosida o'rgatadi?», degan savol qo'yiladi. Buning uchun xorijiy til o'qituvchisi, avvalambor, o'z ona tilini, uning fonetikasi, grammatikasini mukammal bilgandagina xorijiy tilni qiyoslash orqali o'quvchilarga o'rgata oladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan har bir o'qituvchi, jumladan, xorijiy til o'qituvchilari tilshunoslik bo'yicha quyidagi zaruriy kompetensiyalarga ega bo'lishlari lozim: lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik.

MUHOKAMA

Tilshunoslikka oid bu kompetensiyalar umumiy holda tavsiya etilgan. Ularni «Klaster» usuli orqali qismlarga bo'lib o'rganish mumkin. Kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga tatbiq etish uchun tajribali mutaxassislarning 1-2- va 3-sinflarda xorijiy tillarni o'rgatishining ahvolini o'rganish, monitoring qilish yoki ularning faoliyatini o'rganish va ularga metodik yordam berish bugungi asosiy vazifalardan biridir.

Shu maqsadda Surxondaryo viloyati xalq ta'limi boshqarmasi, viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tashabbusi bilan 2014 o'quv yilida viloyat xorijiy til o'qituvchilarining metod birlashmasi tashkil etildi. Metodik birlashmaga viloyatda faoliyat yurituvchi xorijiy til o'qituvchilari a'zo bo'lib, har oyda bir marta viloyat tumanlari maktablarida ochiq darslar tashkil etilmoqda, yosh o'qituvchilarga uslubiy yordam ko'rsatilib kelinmoqda. Bu esa o'z navbatida bugungi yoshlarga tavsiya etilayotgan kompetensiyalar qay darajada shakllanganligini o'rganish va ularga amaliy yordam berishda qo'l kelmoqda. «XXI asr o'qituvchisi tobora taraqqiy etib borayotgan bugungi fan-texnika yutuqlariga har doim hozirjavob bo'lishi, ulardan o'z darslarida samarali foydalana olishi kerak bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida kompetentli o'qituvchilarning ko'proq bo'lishiga bog'liqdir. Darslarda qo'llanadigan ilg'or pedagogik texnologiyalar o'quvchilarda xorijiy til faniga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otish, ularning chet tiliga bo'lgan qiziqishini oshirish va bu tilni mukammal bilish darajasiga ko'tarish, mantiqiy aniq va to'liq nutq egasi bo'lishiga erishish kabi muhim vazifalarni bajarishga yordam beradi»1.



O'qituvchilarimiz bugungi kunda ta'limning an'anaviy va noan'anaviy shakllari asosida darslarni tashkil qilib kelmoqdalar. Bizning bugungi kundagi asosiy vazifamiz DTS asosida o'quvchilarni har tomonlama erkin fikrlovchi, o'zining mustaqil fikrlarini to'liq bayon eta oladigan barkamol avlod qilib tarbiyalashdir. Demak, dars davomida shogirdlarimizni «o'quvchi-tinglovchi» sifatida emas, balki o'qituvchi bilan bimalol bahslashish ko'nikmalariga ega bo'lgan faol o'quvchilar sifatida tayyorlashimiz kerak bo'ladi.

XULOSA

Demak, «O'qituvchi chet tili darslarini pedagogik texnologiyalardan foydalanib shunday tashkil etsinki, u samaraga erishsin». Bu esa o'z navbatida yuqori kompetensiyaga erishgan o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liqdir.

Bizga ma'lumki, xorijiy tillarni o'rganishga nisbatan eng qulay bo'lgan davr 5-8 yosh bo'lib, bu davrda bola tomonidan o'z ona tilini o'rganish tizimi to'liq o'rganilgan bo'lib, xorijiy tilni egallashga ongli ravishda yondashadi, atrofdegilar bilan xorijiy tilda aloqaga kirishish unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Bolalikda xorijiy tillarni o'rganish jarayoni orqali rivojlanadigan layoqatlar bolaning kommunikativ qobiliyatlari rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PK-1875-sonli qarori. // «Xalq so'zi» gazetasi, 11.12.2012 y., 240 (5660)-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 8 maydagi «Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida»gi 124-sonli qarori. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 20-son, 251-modda.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: «Ma'naviyat», 2008.
4. Jumanazarov I.I. Chet tili darslarida pedagogik texnologiyalarni tashkil etish - dolzarb muammo. / «Boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligini oshirish: muammolar, yechimlar» mavzusidagi Respublika amaliy konferensiyasi. - T.: 2014.
5. Kenjaboyev A. Pedagogik texnologiyalar - dars samaradorligining muhim omili. - T.: «Navro'z», 2012.



**MAKTABGACHA BO'LGAN YOSHDA GI BOLALARDA CHET TILLARINI
O'QITISHNING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

II bosqich 5BT-22-guruh talabasi

Musayeva Iroda

Ilmiy rahbar: Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Filologiya fakulteti Ingliz tili

fani o'qituvchisi

Mohinur Qayumova Murodullayevna

mohinurqayumova2606@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish usullari yozilgan bo'lib, hozirda ingliz tili dunyo tili bo'lib bormoqda shu bois uni maktabgacha ya'ni boqcha yoshidan boshlash kerak maqola shu haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: chet tili, so'zlar, fanetika, qoida, dog, rebbit, Ritmik musiqa, metodika.

KIRISH

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi professional ta'limning ajralmas qismlaridan biri bo'lib bormoqda. Bu maktabgacha ta'lim jarayonini ham chetda qoldirgani yo'q. Yoshlar ta'limi davomida xorijiy tillarni o'rgatishning ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'limga etibor berish, davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan rivojlantirish demakdir. Yoshlarimiz zamonaviy va har taraflama yetuk malaka ega kadr bo'lib yetishishlari uchun hamma sharoitlar yaratilgan. Bundan tashqari yuksalish asrida bilim olishga anchagina ko'proq e'tibor qaratilgan. Shuningdek, biz yoshlar O'zbekiston kelajagini porloq qurishimiz uchun, avvalo, samarali va sifatli bilimga ega bo'lishimiz zarur. Shu o'rinda chet tilini o'rganish va o'rgatishni kuchaytirishimiz, xorijiy top universitetlar bilan exchange dasturlarini amalga oshirishimiz hamda bu orqali ko'plab metodlarni o'rganib tatbiq etishimiz zarur.

Adabiyotlar tahlili va metodlar



Bolada o'z ona tilini o'rganishida tabiiy ravishda amalga oshdigan ushbu jarayonlarni qo'shimcha tilni o'rganayotganida uning nutqiga alohida e'tibor bilan qarab turish kerak bo'ladi. Olimlar fikricha, ko'pincha bolaga chet tilini o'rgatish uning shakllangan ona tilisi asosida olib boriladi. Agar uning o'z tili yaxshi shakllangan bo'lsa, uning o'rganayotgan boshqa tilidagi so'zlarni o'zlashtirib olishi osonroq bo'ladi.

Xorijiy til o'rganishning eng qulay va oson o'zlashtirish davri bu maktabgacha bo'lgan davr hisoblanadi. Katta yoshdagi bolalarda til o'rganishning o'ziga xosligini aynan tug'ma qobiliyat deb atash mumkin. Chet tilini o'zlashtirish bolaning umumiy ruhiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi vositalardan biri bo'lib, N.A.Taras'yukning ta'kidlashiga ko'ra, "Tilda muloqot qilish va nutqiy faoliyat orqali bola rivojlanadi, tarbiyalanadi, olamni va o'zini taniydi, xususan xorijiy ta'lim jarayoni bolaga berish mumkin bo'lgan o'sha barcha ma'naviy boylikni egallaydi".

Chet tilini o'qitishning asosiy muammosi talabaning yoshi. Ma'lumki, bolalar o'rganish uchun qulayroqdir. Yaqin vaqtgacha o'qitish metodikasi bolalarga qaratilgan edi maktab yoshi, endi ota-onalar chet tilini o'rganishni iloji boricha erta boshlashga intilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarni chet tiliga o'rgatishning asosiy maqsadlari:

- bolalarda chet tilida boshlang'ich muloqot qobiliyatlarini shakllantirish;
- o'z maqsadlariga erishish, hayotiy aloqa sharoitida fikr va hissiyotlarini ifoda etish uchun chet tilidan foydalanish qobiliyati;
- chet tillarini yanada o'rganishga ijobiy munosabat yaratish;
- boshqa mamlakatlar hayoti va madaniyatiga qiziqishni uyg'otish.

Maktabgacha yoshi, ayniqsa, chet tilini o'rganishni boshlash uchun juda qulaydir. Bu yoshdagi bolalar til hodisalariga nisbatan sezgirligi bilan ajralib turadi, ular o'zlarining nutq tajribalarini, tilning "sirlarini" tushunishga qiziqishadi.

MUHOKAMA

Yana bir samarali metodlardan biri bu ularning o'zlari yoqtirgan va sevib o'ynaydigan narsalaridan foydalangan holda o'rgatishdir. Ma'lumki, ota-ona farzandi uchun kerakli birinchi raqamli shaxslardir. Shu uchun ham ularning ta'lim tarbiyasi hamda bilim olishlari uchun avvalo ular javobgar hisoblanishadi. Shuningdek, ularda ilk qiziqishni uyg'otish, ma'lum bir yo'nalish tomoga boshlash uchun ham ularning ahamiyati kattadir. Bunda biz ko'rishimiz mumkinki, bola o'zning sevimli o'yinchog'iga yoki kitobiga qiziqishi boshqa


narsalardan ko'ra ko'proq bo'ladi. Va shu orqali bola yangi so'z yoki terminni o'rganyotgan vaqtda, o'sha yoqtirgan narsasi orqali o'rganadi. Va o'sha sevimli o'yinchog'i orqali o'sha so'z ham sevimliga aylanadi.

Shuning uchun hozirda Xitoyda tarbiyachidan rasm chizish mahoratiga ega bo'lish talab qilinadi. Bu nafaqat o'qitishning qiyinchiliklarini qisqartiribgina qolmay, balki o'quvchilarni o'rgangan bilimlarni asta-sekin mustahkamlashga yordam beradi. O'quvchilar ingliz tilini o'rganish jarayonida o'zlaridagi yutuqlarni his etishlari uchun har bir o'quv mashg'ulotiga mukammal yondashish kerak. Ana shundagina bolalarda o'rganishga motivatsiya uyg'onadi. Hozirgi kunda Xitoylik bog'cha yoshidagi bolalar yangi bilimni qabul qilish imkoniyatlari juda ilgarilab ketganligi sababli bog'chalardagi o'qitish dasturlari shunga mos ravishda intensivlashtirilgan.

Natijalar

Umumiy qilib aytganda, aslida chet tilini o'rganishni bolaning juda ham yosh davirlardan boshlagan ma'qul hisoblanadi. Kichik yoshdagi bolalarning miyya faoliyati to'xtovsiz o'sish rivojlanishda davom etayotgani uchun ular miyya faoliyati to'liq shakllanib bo'lgan, katta shaxslarga nisbatan yangi ma'lumotni ancha tezroq qabul qilish qobiliyatiga egadirlar. Ushbu o'ziga xosliklarni inobatga olgan holda darsni rejalashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi

Barcha o'quvchilar singari, bolalar ham turli xil ta'lim uslublariga ega. Bolalar uchun moljallangan ta'lim barcha ta'lim uslublarini hisobga oladi. Taktik va kinestetik o'rganish turlari o'quvchidan alohida e'tibor talab qiladi. Boshlang'ich maktablarda o'quvchilarning iqtidorlari, malakalari, bilimlari va qiziqishlari kengroq boladi. Chet tilini o'rganish, shuningdek, o'rganuvchining yaxshi tushuna olish qobiliyatiga bog'liqdir. Chet tilini o'rgatish mobaynida har bir bolani harakati uchun rag'batlantirib borish talab etiladi. Ularda akustik, kinestetik, ritmik va vizual farqlashni rivojlantirish kerak. Bolalar tez o'rganishadi, lekin tezda unutishadi. Shuning uchun, nutqni bir necha bor takrorlab, shu mavzuga doir o'yin yoki tarqatmalar orqali bolalarning esida qolishiga yordamlashish mumkin. Kurslar doim bo'lib, muntazam takrorlashlar ajralmas qismidir. Xorijiy tillarni muvaffaqiyatli o'rgatish keng qamrovli usullarni talab qiladi. Bunga yana bir misol sifatida, bolalarga ingliz tilidagi yoki o'zlari o'rganayotgan tildagi "listening" ya'ni eshittirishlarni qo'yib berish hamda bu bolaga qanchalik ta'sir qilishini kuzatish zarur. Agar ularga bu eshittirishlar tushunarsiz bo'lsa undanda osonroqlarini tinglatish zarur. Shuningdek "listening" dagi so'zlarni avval tarjimasini yozdirib ularga ma'nosini tushuntirish hamda nutqiy faoliyatda qanday qo'llanilishini tushuntirish lozim.



Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasining o'ziga xos hususiyati ularning tafakkurining dangalligi, serharakat va rang - barang narsalarga moyilligida o'z ifodasini topadi. Shu boisdan yosh bolalarga biror narsani o'rgatish jarayonida yorqin va rangli ko'rinish juda yaxshi natija bera oladi. Agar bola o'zi ko'radigan narsa, rasm yoki harakat bilan bevosita bog'liq bo'lsa, bola chet tilidagi so'zni ancha tez o'rganadi. Shuning uchun she'r va qo'shiqlarni o'rganish jarayonida pedagog ularni harakatlar va imo- ishoralar bilan birga bajarishi kerak bo'ladi. Darsni to'g'ri, pedagogik va uslubiy ravishda tashkil etish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Darsning har bir elementi yosh va psixologik hususiyatlarni hisobga olgan holda rejalashtirilishi va amalga oshirilishi kerak

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarga xorijiy til o'qitish jarayoni bir muncha murakkabroq va pedagog bu qiyinchiliklarni ko'ra olgan holda har bir bolaga alohida psixologik jihatdan yondosha olishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. Darslik. - T.: "Barkamol fayz media", 2018.

2. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., Kayumova N.M., A'zamova M.N. Maktabgacha pedagogika, Toshkent, 2019.

3. Ibragimov, X., and Abdullayeva Sh. "Pedagogika nazariyasi (darslik)." T.: Fan va texnologiya 288 (2008).

4. Ibragimovich X. I. O 'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMIDA KREDIT - MODUL TEXNOLOGIYALARINI QO 'LLASHNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL. - 2021. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA TILLARNI INTENSIV O'QITISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK JIHATLARI RESPUBLIKAILMIY-AMALIY ANJUMANI 2023-yil 2-iyun

6. Махмудов А. Х. ИНТЕНСИФИКАЦИЯ ОБУЧЕНИЯ ПРЕДМЕТА «ШАХМАТЫ» ЧЕРЕЗ РЕШЕНИЯ ШАХМАТНЫХ ЗАДАЧ: 10.53885/ед. 2022.49. 38.098 Махмудов Абдулхалим Хамидович, д. 2 п. н, зам. директора Узбекского научно-исследовательского института педагогических наук им. Кары Ниязи, abduhm@yandex.ru //Научно-практическая конференция. - 2022. - С. 766-768.

7. Махмудов А. Х., Абдурахмонов З. Б. Таълимда замонавий рақамли технологияларидан фойдаланишнинг ютуқлари ва муаммолари //Academic research in educational sciences. - 2021. - Т. 2. - №. CSPI conference 3. - С. 97-99.

8. www.fayllar.org



**MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI O'QITISH
METODIKASI**

Zamira Asomiddinova

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida ingliz tili fanini takomillashtirish va o'qitish, maktablarda, bog'chalarda, ingliz tili fanini o'qitish va uni takomillashtirish istiqbollari, ingliz tili o'qitishda texnik vosita va ko'rgazmali qurollardan foydalanish malakalarini shakllantirish, ingliz tili o'qitishning umumta'limiy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalari, o'quvchilarda til o'rganish mohiyatini tafakkurni va madaniyatni rivojlantirish haqida batafsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Til o'rganish jamiyatdagi, bag'oyat muhim sohalardan hisoblanadi, muloqot vositasi, tafakkur, o'qitish usullari.

KIRISH:

Ingliz tilini bog'cha, maktabning ilk davridan takomillashtirish zarur. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda oilada jamoatchilik orasida yoki uyushgan holda darsda amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rganiladi. Har bir o'quvchi darsda faol va zavq bilan ishlashi, bilimga bo'lgan ishtiyoqning paydo bo'lishi va takomillashidan boshlang'ich nuqta sifatida foydalanishi, muhim e'tiborni o'rganishga qiziqishni chuqurlashtirishga qaratishi lozim.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Ma'lumki, chet tilni o'rgatish – o'rganish muayyan jihatlari bilan ona tili va ikkinchi tildan keskin farqlanadi. Bu esa o'z navbatida, tegishli chet tili o'qitish texnologiyasini qo'lashni taqozo etadi. Shu jumladan zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlash shakllanib boradi. Natijada o'quv faoliyat jarayoni ham yangilikka muhtoj bo'lib qoladi. Bu holatdan chiqish uchun darslarni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish o'qituvchining bu – faoliyatini amalga oshirish uchun tayyorgarlik darajasi. Innovatsion muammolarni hal qilish muhim zamonaviy ilmiy fikrlash yo'nalishlariga qo'shish. Innovatsion jarayonlarni o'rganish va innovatsion pedagogik masalalarni yechish ta'lim sohasida innovatsion jarayonlarning borish xususiyatlarini o'rganishdan iborat.



Til tajribasi termini Yevropa tillarida chop etilgan metodik adabiyotlarda deyarli uchramaydi, chunki rus, ingliz, nemis, fransuz maktablarida yagona ona tili chet til o'rganishda hisobga olinadi. Tafakkurni shakillanishida alohida hizmat o'taydigan birinchi tildir.

O'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, bilimlar tizimini ma'lum bir usulda berishdan iborat. Ko'rinib turibdiki, yoshlarga tilni o'rgatish, yaxshi bilishni, o'qitish metodlaridan foydalana bilishni talab etadi. Shuningdek, u pedagogika, psixologiya va boshqa fanlarni chuqur bilishi zarur. Bu jarayonda o'qituvchi fidoyi kasb egasi sifatida o'quvchilarning dunyoqarashini boyitishi lozim. O'qituvchi kasb sifatida mantiq dahosi bo'lishi va shu mantiqni darsda qo'llay bilishi kerak.

Natijalar:

Mashg'ulotning asosiy muhim maqsadi bolalarning intellektual qobiliyatlarini, mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek chet tillarini egallashga qiziqtirishdan iborat. Dars davomida bolaning faolligini va til o'rgnishga bo'lgan qiziqishini yanada oshadi. Binobarin, o'qituvchi o'quvchilar tafakkurini faollashtiradigan, mustaqil bilimlarini ifodalovchi yangi faol o'qitish metod va usullaridan foydalana bilishi joiz.

Ingliz tiliga qiziqish uyg'otish o'qitish uslubining yuqori saviyasi va o'quv ishining qanchalik mahorat bilan qurilganligiga bog'liq. Har bir o'quvchi darsda faol bo'lishi, zavq bilan ishlashi va bilimga bo'lgan ishtiyoqning paydo bo'lishi va rivojlanishidan boshlang'ich nuqta sifatida foydalanishi, asosiy e'tiborini bilimga bo'lgan qiziqishini chuqurlashtirishga qaratishi lozim.

Bu, ayniqsa, bolalarning u yoki bu fanga bo'lgan doimiy va qiziqishini aniqlashda, u qayta shakllanganda juda muhimdir. Ingliz tilini nafaqat bu tilni boshqa tillarni o'rganish o'sha davlatni madaniyatini urf odatlarini yaqindan bilishga yordam beradi. Maktablarda chet tili o'qitish metodikasi fani erishgan yutuqlarni egallash talabalar uchun quydagi imkoniytlar yaratadi. 1-kelajak kasbiy faoliyatlariga puxta nazariy zamin tayyorlaydi. 2-Ta'limning zamonaviy metodlari, tashkiliy formalari va vositalari bilan atroflicha tanishtiradi 3- talabaning olgan metodik bilimlarini amaliyotda samarali qo'llay olish uchun ko'nikma va malakani hosil qiladi. 4- barcha fanlardan o'zlashtirgan nazariy bilim va amaliy malakalarini maktab ta'lim-tarbiya ishida ijodiy tatbiq etishga ko'maklashadi.

O'rgatish uchun o'qituvchi fanlarni yaxshi bilishi, o'qitish usullaridan mohirona foydalana olishi zarur. Shu bilan birga pedagogika, psixologiya va boshqa fanlarni ham chuqur bilish zarur. Shuning uchun o'quvchilarning tafakkurini faollashtirish, mustaqil bilimlarini ifodalash uchun o'qitishning yangi faol uslub va uslublari o'rgatiladi.

Muhokama:

Tilni o'rganish bu ilmiy dunyoqarashni, o'sishiga yordam beruvchi asosiy yollardan biridir. Biroq birgina nazariy bilimlarning o'zi, yatarli bo'la olishiga ishonish qiyin, til o'rganishda, o'sha davlatda biroz vaqta yashash, va ko'proq muloqot uchun do'stlashish ham bir yo'lidir. O'qtuvchi tomonidan jon kuydirib o'tigan mavzu va metodlar ham yetarli natija ko'rsatmaganda bu yo'l natija berishi mumkin. O'qitishning ma'lum mohiyatini va o'qituvchilarning aqliy faoliyati saviyasi bilan ta'sirlanadigan eng oqilona usullarini tiklash va qo'llanishini bilish, darsga tayyorlanishda yoki darsning o'zida yuzaga keladigan aniq uslubiy vazifalarni hal qilishda kerakdir.

Bolalar ongini hisobga olgan, holda balki sifatini xarakterlaydigan quyidagilarni ham e'tiborga olish zarur. O'qitish metodlaridan, ta'limning yangi mazmuniga, yangi vazifalariga mos keladiganlariga ongli tanlab olish uchun oldin hamma o'qitish metodlarini tasniflashni o'rganib chiqish kerak.

O'quvchilarni til o'rganishga tayyorlashda ishni nimadan boshlash yangicha yechim topishni taqozo etadi. Tilni "jiddiy" o'rganish uchun o'quvchilarni partaga o'tqazishdan oldin, balki ular bilan turli o'yinlar o'tkazish lozimdir. Maktabga tayyorgarligida didaktik o'yinlardan foydalaniladi, biroq bu o'yinlar, birinchidan mantiqiy va til o'rganishga mazmun boyitilgan bo'lmog'i, ikkinchidan ular mashg'ulotning o'zida emas, balki undan oldin yoki keyin o'tkaziladi.

XULOSA:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, hozirgi kun o'quvchisini bugungi zamonning talablari asosida o'qitish zarur. Darhaqiqat, yangi texnologiyalar zamonida dunyoga kelayotgan o'g'il-qizlar o'zining bir qator umumiy sifatleri bilan ajralib turadi. Turmush tarzimiz, qiziqish va xohish-istaklarimiz global makonda qariyb o'xshash tus olayotgan bir vaqtda kechagi o'qitish usullari bilan maqsadga erishib bo'lmaydi. Zamon bilan hamqadam takomillashib borgandagina yuqori intellektual avlodni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. O'quvchilarda tilni o'rgatish orqali tafakkurni va madaniyatni shakllantirishdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jalolov Jamol. «Chet tili o'qitish metodikasi», T., «O'qituvchi», 2012. Foreign Language Teaching Methodology

**O‘ZBEK ALLOMASI ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY
QARASHLARIDA BORLIQ MASALASI**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti
matematika va informatika yo‘nalishi mustaqil izlanuvchi talabalari*

Xursanova Mo‘tabarxon Valijon qizi

Xurramova Mashxura Ro‘zimurod qizi

Xolniyazova Ruxshona Nortosh qizi

Email: ruxshonaxolniyozova@gmail.com

jajjimalikaerkatoy@gmail.com

zaynuddinxurramov@gmail.com

ANNOTATSIYA


O‘rta asrlarda Sharq olamida yashab ijod etgan buyuk alloma va mutafakkirlarning ilmiy merosini chuqur muhokama qilish va anglash, uning zamonaviy sivilizatsiya tarixida tutgan o‘rni va roliga baho berish bugungi kun falsafasining dolzarb masalalaridan biridir. Ana shu bebaho ilmiy merosni yanada teran tadqiq etish va ommalashtirishga qaratilgan sa’y-harakatlarga yangi turtki berish, Sharqning ulug‘ allomalari tomonidan amalga oshirilgan kashfiyotlar zamonaviy ilm-fan va taraqqiyot uchun naqadar dolzarb va zarur ekanini ochib berishning ahamiyati ham shunchalik muhimdir.

Kalit so'zlar: Ibn Sino, "Al-Ishorat va at-tanbihot", baxt, ruh, ong, tana, fazilat, borliq, ruhiy tajriba, ichki zavq, tashqi zavq.

ABSTRACT

An in-depth discussion and understanding of the scientific heritage of the great scholars and thinkers who lived and worked in the Middle Ages in the Middle Ages, and an assessment of its place and role in the history of modern civilization is one of the most pressing issues of modern philosophy. It is equally important to give a new impetus to the efforts to deepen the study and popularization of this invaluable scientific heritage, to reveal the relevance and necessity of the discoveries made by the great scientists of the East for modern science and development.

Keywords: Ibn Sina, "Al-Isharat wa at-tanbihot", happiness, soul, mind, body, virtue, being, spiritual experience, inner pleasure, external pleasure.



АННОТАЦИЯ

Углубленное обсуждение и понимание научного наследия великих ученых и мыслителей, которые жили и работали в средние века в Средние века, а также оценка его места и роли в истории современной цивилизации является одним из наиболее актуальных вопросы современной философии. Не менее важно придать новый импульс усилиям по дальнейшему изучению и популяризации этого бесценного научного наследия, выявить актуальность и необходимость открытий великих ученых Востока для современной науки и развития.

Ключевые слова: Ибн Сина, «Аль-Ишарат ва ат-танбихот», счастье, душа, разум, тело, добродетель, бытие, духовный опыт, внутреннее удовольствие, внешнее удовольствие.


KIRISH

“Mavjudodning klassifikatsiyasi to’g’risidagi risola” da hakimlar boshlig’i Abu Ali ibn Sino shunday yozgan: “Borliq ikki qismga bo’linadi, ulardan biri borlig’i o’z zotidan bo’ladigan, ikkinchisi esa borlig’i o’z zotidan boshqasidan bo’ladigan narsalardar¹”. Ya’ni borliqni anglatuvchi tushunchalar bir-birini tashkil etadi va ular o’z zotidan (yuzaga keladigan) zaruriy vujud (vujudi vojib) deb ataladi. Keyingisi esa, o’z chegarasida mumkin bo’ladigan vujud (vujudi mumkin) deyiladi.

Zaruriy vujud o’zidan boshqasidan qat’iy nazar, o’z zotiga nisbatan yo’q bo’lishi faraz qilinsa, bu be’manilik bo’lib qoladi. Vujudi mumkin (bo’ladigan vujud), tom ma’noda olganda, ikki ma’noda keladi, ulardan biri yo’q bo’lishi mumkin bo’lgan narsalar ma’nosida keladi.

Birinchi ma’nosi – umumiy (mumkin bo’lgan vujud) deb ataladi, chunki u zaruriy vujudni ham, mumkin bo’lgan vujudni ham o’z ichiga oladi va har ikkisi uchun ham jinsdan bo’ladi, ikkinchi ma’nosida esa xususiy mumkin deyiladi va birinchisiga nisbatan xususiyroq tuchuncha bo’ladi.

Xususiy mumkin ikkiga bo’linadi: birinchisi borlig’i o’z zotidan bo’lgan va borlig’i o’z zotidan bo’lmay, boshqa narsalar tufayli bo’lgan, bulardan birinchisi substansiya (javhar), ikkinchisi esa, aksidensiya (obraz) deyiladi. Birinchisi (substansiya) ma’lum joy bilan bog’liq bo’lmagan narsa deb ta’riflanadi, ikkinchisi esa, mavjudlikdagi faqat ma’lum joy bilan bog’liq bo’lgan narsa, deyiladi. Bu yerda joy deganda tugal ob’yektni nazarda tutamiz.



MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ibn Sino aksidensiyalar haqida fikr yuritar ekan, "Aksidensiyalar ham ikki turda bo'ladi: biri ob'yektsiz mavjud bo'lmagan aksidensiya, ikkinchisi esa ob'yektsiz ham mavjud bo'lgan aksidensiyadir".¹⁴

Bulardan birinchisining o'zi ham yana ikkiga bo'linadi, biri ob'yekt bilan ham real, ham aqlga bog'liq bo'lgan aksidensiya, uch sonining toqligi, to'rt sonining juftligi kabi va ikkinchi ob'yekt bilan faqat real bog'liq bo'lgan aksidensiyadir: bir uchburchak burchaklarining yig'indisi ikki to'g'ri burchakka tengligi kabi. Ikkinchi turdagi aksidensiya (ya'ni, obyeksiz ham mavjud bo'lgan) esa, ob'yekt bilan bog'liq bo'lmay, mustaqil mavjuddir¹⁵. Bu ham ikkiga bo'linadi: biri – yo'qolishi sekinlik bilan bo'ladigan aksidensiya, masalan, gullarning qizilligi yoki yigitlarning yoshlik holati.

Ikkinchisi yo'qolishi tez bo'ladigan aksidensiya, masalan, uyalgan kishining qizarishi yoki qo'rqqan kishining oqarishi kabi.

Substansiya ham o'z navbatida ikkiga bo'linadi, bulardan biri – sodda, ikkinchisi murakkabdir. Sodda substansiya – bular bir substansiyadan iborat bo'lgan qismlardan tashkil topmagan substansiyasidir. Sodda substansiya olov, havo suv va turli tabiiy xususiyatlarga ega bo'lgan narsalardan tuzilgan substansiyadir. Murakkab substansiya esa, har biri substansiyadan tashkil topgan narsalardir. Sodda substansiyaning o'zi ikkiga bo'linadi: murakkab substansiyaning tarkibiga kiradigan va murakkab substansiyaning tarkibiga kirmaydigandir.

Murakkab substansiyaning tarkibiga kiradigan sodda substansiya ham ikki xil bo'ladi:

1 – qabul qiluvchi bo'lak bo'lib, materiya(xayulo) deyiladi. Materiya shunday narsaki, uning mavjud bo'lgani bilan murakkab narsalar vujudga kelmaydi, masalan, yog'och kursiga nisbatan shundaydir.

2 – qabul qiluvchi bo'lak, bu shakl(surat) deyiladi. Shakl shunday narsaki, u mavjud bo'lsa, murakkab narsalar ham vujudga keladi, masalan, kursi yog'ochga nisbatan

¹⁴ Ibn Sino. رسالة نبي نوح بن الموحودات ("Mavjudodlarning taqsimlanishi haqida risola"), qo'lyozma.

Ko'chiruvchisi va ko'chirilgan yeri noma'lum. 1664 – yilda ko'chirilgan, 18x24,5 o'lchamda, 2

¹⁵ Ibn Sino. رسالة نبي نوح بن الموحودات ("Mavjudodlarning taqsimlanishi haqida risola"), qo'lyozma.

Ko'chiruvchisi va ko'chirilgan yeri noma'lum. 1664 – yilda ko'chirilgan, 18x24,5 o'lchamda, 2 varaq, 19 yo'l, arab tilida. – B. 2.




kursining shakli.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Ibn Sino o‘zining boy va serqirra ilmiy merosi bilan keyingi davr Sharq va G‘arb madaniyatining rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Ibn Sinoning falsafiy qarashlari keyingi faylasuf olimlarning falsafiy ta’limotlariga katta ta’sir ko‘rsatdi. Ibn Sino ijodiga murojat etishning dolzarbligi shu bilan izohlanadiki, bugungi kunda hayotga borligicha qarash va uni jamiyat uchun to‘g‘ri talqin qilib berish muhim vazifa bo‘lib kelmoqda.

REFERENCES

1. Абу Али Ибн Сино. “Ал-ишорат ва ат-танбиҳот” (Насриддин ат-Тусийшарҳи) Қоҳира 1365. – Б 338
2. Parviz Morewedge. “The metaphysica of Avicenna (Ibn Sina)” New York 2004, –P. 141.



UDK 677.052.48.3/5

**TARKIBLI DISKRETLOVCHI BARABANCHA TISHLI GARNITURASI
TEBRANISHLARINI UNING PARAMETRLARIGA BOG‘LIQLIGI TAHLILI**

PhD, dotsent., **Urakov Nuriddin Abramatovich**

Talaba. **Jumanazarova Sitara Shonazar qizi**


Termiz muhandislik-texnologiya instituti

Tavsiya etilgan diskretlovchi barabancha tishli garnituralari qayishqoq vtulka orqali uning valiga o‘rnatilgan. Bunda tishli garnitura 3ta bir xil qismlarga bo‘lingandir. Buning natijasida har bir tishli garnitura piltalari bilan ta’sirlashganda ham aylanma, ham vertikal yo‘nalishlarda tebranadi. Ushbu tebranishlar aylanishlar amplitudalari juda kichik bo‘lsa ham, tolalar to‘g‘rilanadi va parallellashiga olib keladi. Shuning uchun diskretlovchi barabanchalarni vertikal tebranishlarini tahlili muhim hisoblanadi. [1].

Diskretlovchi barabancha tishli garnituralarini tebranish qonuniyatlarini olish uchun keltirib chiqarilgan ifodali sonli yechimini har bir tishli garnitura uchun alohida amalga oshirildi [2]. Hisoblash parametrlarining quyidagi qiymatlarida amalga oshirildi:

$$m_2 = (1.2 \div 1.8) \cdot 10^{-2} \text{ кг}; \quad n_{\partial} = (6.0 \div 7.5) \cdot 10^{-3} \text{ айл / мин};$$
$$F_1 = (12 \div 24) \text{ сН}; \quad F_0 = (2.3 \div 4.5) \text{ сН}; \quad \delta F_1 = (0.25 \div 0.65) \text{ сН};$$
$$c = (0.08 \div 0.35) \cdot 10^3 \text{ Н / м}; \quad \epsilon = (1.3 \div 2.5) \text{ Нс / м};$$

Olingan qonuniyatlarda diskretlovchi barabancha har uchchala tishli garnituralari vertikal siljish qonuniyatlari alohida belgilandi (1-rasm, U_1 , U_2 , U_3 , grafiklari). 1-rasmda tavsiya etilgan tarkibli diskretlovchi barabancha tishli garnituralarini vertikal tebranish qonunlarini texnologik va yuritgich aylanish chastotasiga bog‘liqligi keltirilgan. [3]. Olingan qonuniyatlar tahliliga ko‘ra diskretlovchi barabancha o‘rta qismidagi tishli garniturani tebranish amplitudasi qachon chetki tishli garnituralar tebranishlari amplitudalaridan (15÷20)% gacha yuqoriligi aniqlandi. [4]. Buning asosiy sababi $F_2 = 1.2F_1 = 1.2F_3$ qilib olinganligi, ya’ni o‘rtadagi tishli garnituraga ta’sir qiluvchi texnologik qarshilikning kattaligi hisobidir. [5].




$$F_n = (12 + 2.3 \sin \omega t \pm 0.25) cH; \quad c = 0.25 \cdot 10^3 \text{ N/m};$$

$$n_\omega = 6 \cdot 10^3 \text{ ayl/min}; \quad \epsilon = 2.5 \text{ Ns/m};$$


1-rasm. Tavsiya etilgan tarkibli diskretlovchi barabancha tishli garnituralarining vertikal tebranish qonunlarini texnologik va yuritgich aylanish chastotasiga bog‘liqlik qonuniyatlari keltirilgan

Chunki o‘rta zonada piltalarning zichligi yuqoriroq bo‘ladi. Ta’kidlash lozimki, U_1 , U_2 , va U_3 , larning tebranish amplitudalari garnituralar o‘rnatilgan rezinali vtulkalarning chiziqli bikrlilik koeffitsiyentlariga ham bog‘liq bo‘ladi. 1-rasmdagi qonuniyatlardan ko‘rinib turibdiki, texnologik qarshilikni ortishi bilan tishli garnituralarning tebranish amplitudalari ham mos ravishda ortib boradi (1-rasm, a, b, v -grafiklar). Ularning tebranish chastotalari barqaror harakat vaqtida yuritgichning aylanish chastotasiga deyarli mos keladi. Bunda tebranish chastotasining qiymati $1.22 \cdot 10^2$ Gs ga teng bo‘ladi. Mos ravishda yuritgich aylanish chastotasi $7.5 \cdot 10^3$ ayl/min gacha orttirilganda, tishli garnituralarning tebranish chastotalari proporsional ravishda ortadi va $1.42 \cdot 10^2$ Gs ga teng bo‘ldi (2-rasm, a, b, v -grafiklar). Bunda diskretlovchi barabanchani har uchchala tishli garnituralarini tebranish amplitudalari qiymatlari ta’siri deyarli o‘zgarmaydi.



$$F_n = (12 + 3.35 \sin \omega t \pm 0.25) cH; \quad c = 0.25 \cdot 10^3 \text{ N/m};$$

$$n_\omega = 7.5 \cdot 10^3 \text{ ayl/min}; \quad \epsilon = 2.1 \text{ Ns/m};$$



$$F_{\text{л}} = (18 + 3.35 \sin \omega t \pm 0.45) cH; \quad c = 0.25 \cdot 10^3 \text{ N/m};$$

$$n_{\text{д}} = 7.5 \cdot 10^3 \text{ ayl/min}; \quad \epsilon = 2.1 \text{ Ns/m};$$

2-rasm. Tavsiya etilgan tarkibli diskretlovchi barabanча tishli garnituralarining vertikal tebranish qonunlarini texnologik va yuritgich aylanish chastotasiga bog‘liqligi keltirilgan

Lekin o‘rta qismdagi tishli garniturani tebranish qamrovi, $F_2 = 12 \cdot F_1$ bo‘lagi uchun tebranish qamrovi qiymatlari kattaroq bo‘ladi. Mos ravishda $\Delta V_1 = \Delta V_3$ ning qiymatlari $0.485 \cdot 10^{-3} \text{ m}$ dan $1.42 \cdot 10^{-3} \text{ m}$ gacha nochiziqli qonuniyatda ortib boradi. Qayd etish lozimki, o‘rtadagi tishli garnitura tebranishlarining qamrovi qiymatlari mos ravishda $F_1 = (12 + 2.3 \sin \omega t \pm 0.25) \text{ sN}$ bo‘lganda ΔV_2 qiymatlari $0.138 \cdot 10^{-3} \text{ m}$ dan $0.79 \cdot 10^{-3} \text{ m}$ gacha chiziqsiz qonuniyatda ortib boradi. [6].

Texnologik qarshilik $F_1 = 24.0 \text{ sN}$ bo‘lganida ΔV_2 qiymatlari $0.54 \cdot 10^{-3} \text{ m}$ dan $1.62 \cdot 10^{-3} \text{ m}$ gacha ko‘payib boradi. Tajribaviy tadqiqotlar natijasiga ko‘ra tishli garniturani vertikal tebranishlari, shuningdek, garnitura tishlarining o‘zaro farqi $(1.0 \div 1.2) \cdot 10^{-3} \text{ m}$ dan oshmasligini ta‘minlash uchun yuritgich aylanish chastotasi $(7.0 \div 7.5) \cdot 10^3 \text{ ayl/min}$ oralig‘ida tanlash maqsadga muvofiqdir. Lekin amortizatorning bikrligini mos qiymatlarini tanlash hisobiga p_d qiymatlarini $(10 \div 12) \cdot 10^3 \text{ ayl/min}$ gacha ortishi mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Juraev, A., and N. Urakov. "DEVELOPMENT OF DESIGNS AND JUSTIFICATION OF THE PARAMETERS OF A SCRETTING DRUM WITH A DAMPER OF A SPINNING MACHINE." *Science and innovation* 1.A4 (2022): 231-239.

2. Juraevich, Juraev Anvar, and Urakov Nuriddin Abramovich. "DEVELOPMENT OF DESIGNS AND JUSTIFICATION OF THE PARAMETERS OF A SCRETTING DRUM WITH A DAMPER OF A SPINNING MACHINE." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.5 (2022): 1093-1101.

3. Urakov, Nuriddin Abramovich, Anvar Djurayevich Djurayev, and Saloxiddin Zununovich Yunusov. "METODIKA OPREDELENIYA KRITICHESKOY SKOROSTI DISKRETIZIRUYUSHEGO BARABANCHIKA PNEVMOMEXANICHESKOY PRYADILNOY MASHINI." *Molodiye ucheniye-osnova budushego mashinostroyeniya i stroitelstva*. 2014.

4. Djurayev, A. D., Urakov, N. A., Mirzayev, O. A., Almardonov, O. M., & Usmanov, X. S. (2021). ANALIZ NAGRUJENNOSTI PITAYUSHEGO SILINDRA V UZLE PITANIYA PRYADILNIX MASHIN. *Universum: texnicheskiye nauki*, (12-3 (93)), 48-53.

5. Djurayev, A. D., Murodov, T. B., Matismailov, S. L., Mirzayev, O. A., & Urakov, N. A. (2020). Diskretiziruyushiy barabanchik dlya pnevmomexanicheskix pryadilnix mashin. *Patent na izobreniye, № IAP06301*, 30.

6. Djurayev, A. D., Mirzayev, O. A., Urakov, N. A., & Umarov, R. I. (2019). Pitayushiy silindr pryadilnogo ustroystva. *Patent na izobreniye, № IAP05854*, 7.

Ingliz tilini boshlang'ich sinflar kesimida o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi **Shonazarova Go'zaloy Rabbil qizi**

Ilmiy rahbar: Denov tadbirkorlik va pedagogika

Filologiya fakulteti Ingliz tili

fani o'qituvchisi

Mohinur Qayumova Murodullayevna

+998971944007

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich ta'lim yo'nalishi doirasida sohalarda ingliz tilining o'rni va ingliz tilini boshlang'ich sinf o'quvchilariga samarali o'rgatishda foydalaniladigan eng zamonaviy va innovatsion metodlar haqida yoritilgan.


Kalit so'zlar: Chet tili, o'yin, innovatsion texnologiya, texnologik vositalar, usullar,

Kirish

Hozirgi kunda va siz - u biz yashayotgan bu zamonda ingliz tilini boshlang'ich sinflar kesimida o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanib o'rgatish va ularning kamolotga erishishida befarq bo'lmaslik barcha ota-onalarning va pedagoglarning muhim vazifalarida biriga aylanganini ko'rishimiz mumkin.

Respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. (1. Муминова, Ф. М. Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish / Ф. М. Муминова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 18 (308). — С. 590-592. — URL: <https://moluch.ru/archive/308/69404/> (дата обращения: 23.04.2024)

Zamon tilshunosligi tillarni qiyosiy tahlilidan tashqari o'zaro uzviy bog'liqligiga qarab metodik jihatdan yangi bosqichga ko'tarmoqda. Buning yorqin dalili sifatida



dunyoning eng yetakchi tili hisoblangan ingliz tilining tillararo integratsiyasi orqali taraqqiyotga yuz tutganini keltirish mumkin. Dunyodagi aksariyat foydalaniladigan ta'lim tili, shubhasiz, ingliz tilidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspect (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD diskarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir.

Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilari Amerika Qo'shma Statlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda:

– “Muammoli vaziyat yechimi” (Creative Problem Solving) bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi qanday yakun topishi o'quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi;

– “Quvnoq topishmoqlar” (Merry Riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish Ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar;

– “Tezkor javob” (Quick answers) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi;

– “Chigil yozdi” (“Warm-up exercises”) o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o'yinlardan foydalanish;

– “Pantomima” (pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo'ladi va boshqalar. (2 N. Q. Xatamova, M.N.mirzayeva. “INGLIZ TILI

DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR" (uslubiy qo'llanma), Navoiy, 2006, 40 bet).

NATIJA

Jahon miqyosida e'tibor bersak, O'zbekiston ingliz tilini bilish darajasi bo'yicha 446 ball bilan 110 davlat orasida 89-o'rinni egalladi. Bu haqda Education First xalqaro ta'lim markazi ma'lum qildi. Ushbu statistikada barcha davlatlar tilni bilish darajasiga ko'ra 5 toifaga bo'lingan. O'zbekiston 446 ball to'plagan holda juda past ko'rsatkichga ega davlatlar qatoriga kirgan. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo davlatlari orasida O'zbekiston eng yaxshi natijani ko'rsatgan. Unda Qirg'iziston 91 (442 ball), Qozog'iston – 99 (420 ball), Tojikiston – 106 (397 ball) o'rinni egallagan.

Ingliz tilini bilish darajasi eng yuqori mamlakatlar ro'yxatiga Osiyodan faqatgina Singapur kiritilgan. Keyingi kategoriyadan Filippin va Malayziya, uchinchi toifadan esa Honkong, Hindiston va Xitoy joy olgan. Yaponiya – to'rtinchi klassda. O'zbekiston esa 100 talik o'rindan 95-o'rindadir.

Murakkab va takomillashgan fanlarni o'quvchilarga tushunarliroq bo'lishini va ta'lim jarayoni muvaffaqiytli, samarali olib borilishini ta'minlash uchun chetdan turli metodlar o'rganib ularni qo'llash jarayonida o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari va o'zlashtirishi past o'quvchilar bilan ham individual ishlash kabi ijobiy natijalarga ham erishildi.

MUHOKAMA

O'qituvchi faoliyati (o'qitish), o'quvchilar faoliyati (o'qish), bolalarning real o'quv imkoniyatlariga mos o'quv materialini ta'lim sharoitida o'zlashtirishning barqaror uzvlari sanaladi.

Tillarni o'qitish boshlang'ich sinflardan boshlanganligi sababli, bu davrda o'qitish tizimini har tomonlama puxta tashkillashtirish nihoyatda ahamiyatli pedagogik jarayondir. Boshlang'ich sinfda tillarni o'qitish uchun haftasiga 5 soat ajratilgan. Bu holat boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun bir qator qo'shimcha imkoniyatlarni kafolatlaydi:

1. Har bir til strukturasi boshqa tillar bilan deyarli o'xshash bo'lganligi bois (fonetika sintaktika) ona tilini nazariy jihatdan o'zlashtirishda o'ziga xos takror vazifasini bajaradi.

2. Tillarni o'qitish tizimida innovatsion metodlardan foydalanish va uni amaliyotda sinov tariqasida qo'llashga yo'l ochadi.

3. Ingliz tilida samarali hisoblangan "Independent work" tizimini ona tili o'qitish tizimida sinxron tarzda olib kirish uchun kerakli muhitni yaratadi.

4. O'ziga xos noodatiy integratsion muhit o'quvchilarni o'zlashtirishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi.

5. Boshlang'ich sinf til o'qituvchilari orasida do'stona muhitdan tashqari ilmiy-amaliy hamkorlikni ham yuzaga chiqaradi.

Yuqoridagi imkoniyatlar, albatta, yuzaga chiqishi uchun ona tili va ingliz tili o'rtasidagi umumiy o'xshashliklar bilan bir qatorda o'zaro farqli jihatlarni ham inobatga olish zarur. Xususan, ingliz tilini o'qitishda asosan o'quvchining amaliy ko'nikmalari (o'qish, yozish, RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA TILLARNI INTENSIV O'QITISHNING PSIXOLOGIKPEDAGOGIK JIHATLARI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI 2023-yil 2-iyun 249 gapirish, tinglash) birligi asos qilib olinsa, ona tili o'qitish tizimida esa bolaning yozma va og'zaki savodxonligiga urg'u beriladi.

Chet tillarini o'rganish boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun juda qiyin bo'lib qolmasligi uchun fan doirasidagi har bir mavzu soddaroq tashkil etilishiga va qiziqarli olib borilishiga alohida e'tibor qartilmoqda.

Integratsion yondashuvdan boshlang'ich sinfda chet tilini o'rganish o'quvchilarning shaxsiy lug'at boyligini oshirishda ham qo'llash nihoyatda tez natija beradi. Bundan tashqari to'g'ri talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishda yordam beradi. Bundan ko'zlangan maqsad esa to'g'ri talaffuz qoidalari uning imloviy xatoliklarni oldini olishga qaratilganligidadir.

XULOSA

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, chet tiliga har bir o'quvchi "Men uchun bu qiziq!" deb murojaat qilishi kerak, shunchaki zarurligi uchungina emas... Shuningdek, tillar integratsiyasi didaktik imkoniyatlaridan o'qitish hamda o'rganish jarayonida muntazam foydalanish o'zlashtirilayotgan tilning mohiyatini to'raligicha ochib beradi. Metodlar yordamida darsning qiziqarli olib borilishi o'quvchini ham fanga qiziqtiradi, ham ilm olishga undaydi. Bir so'z bilan aytganda, boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida foydalaniladigan didaktik materiallarni, didaktik topshiriqlarni yaratish jarayonida integratsion yondashuv har tomonlama tilning didaktik imkoniyatlarini o'zida mujassam eta oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Astafieva M.D. Ingliz tilini o'rganayotgan bolalar uchun ta'til. - M.: Mozaikasintez, 2009 y.

2. Galskova N.D. Nikitenko Z.N. Chet tillarni o'qitish nazariyasi va amaliyoti. boshlang'ich maktab: uslubiy qo'llanma.-M.: Airis-press, 2004.
3. Guseva L.P. Biz o'ynaymiz, o'qitamiz, o'zlashtiramiz - biz ingliz tilini bilishni xohlaymiz. - Rostov n / a: Feniks, 2009 y.
4. Zemchenkova T.V. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ingliz tili. - M.: VAKO, 2008 yil.
5. Ivanova M.V. Bolalar uchun ingliz tili. - M.: AST: Astrel, 2009 y.
6. Trofimova G.S. Chet tillarni o'qitishning pedagogik asoslari (Subaktika didaktikasi). - Izhevsk: Udmurt universiteti nashriyoti, 1999 y.
7. Ergashovna M. G. TYPES OF FABRICS AND THEIR ANALYSIS //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – T. 2. – №. 5. – С. 59-61.
8. N.N.Azizxo,,jayeveva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2016.
9. Muxlisa, Sobirjonova, and Qayumova Mohinur. "LINGVOKULTURALOGIYANING KELIB CHIQISH TARIXI." Евразийский журнал академических исследований 2.3 (2022): 379-383.
10. Qayumova, Mohinur Murodulayevna. "THEORETICAL-METHODOLOGICAL ANALYZE OF COSMOS AND INDIVIDUAL ON CONTEXT OF EXPERIMENTAL SCIENCE." Интернаука 28 (2018): 77-79.
11. Ergashovna M. G. TYPES OF FABRICS AND THEIR ANALYSIS //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – T. 2. – №. 5. – С. 59-61.
12. Qayumova, Mohinur Murodulayevna, Muhlisa Sobirjonovna Sobirjonova, and Feruz Qurbonaliyevich Saidov. "Galileo's influence on John Milton concept "individual". Similarities and differences between the outlook of Galileo and John Milton." Science and Education 2.6 (2021): 494-498.



OMBORXONALARDA IOT TEXNALOGIYALARINI QO‘LLASH VA MOBILE KONTROL


Po‘latov Ziyohiddin Axunjon o‘g‘li

Andijon mashinasozlik instituti Intellectual muhandislik tizimlari yo‘nalishi K19-20 guruh talabasi

Hozirda ombor sanoatida katta o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Joylardan tortib inventarlarni saqlashgacha, ular butun ta‘minot zanjiri samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydigan samarali vositalarga aylandi. Logistika olamida Internet of Things (IoT) texnologiyalarini joriy etish ombor iqlim nazorati va mobil boshqaruvni inqilob qildi. 2024 Zebra Technologies Warehousing Vision Study ma‘lumotlariga ko‘ra, qaror qabul qiluvchilarning 77 foizi xodimlarni texnologiya bilan ko‘paytirish omborda avtomatlashtirishni kuchaytirishning eng yaxshi usuli va talab qilinadigan iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni saqlab qolishning yagona yo‘li ekanligini tan olishadi.

IOT qurilmalari real vaqt rejimida inventarizatsiyani kuzatish imkonini beradi, menejerlarga ongli qarorlar qabul qilish va ombor operatsiyalarini optimallashtirish imkonini beradi[1].

Mobil ilovalar ombor ma'lumotlariga masofadan kirishni ta'minlaydi, bu esa menejerlarga har doim aloqada bo‘lish va nazorat qilish imkonini beradi.



IOT texnologiyalari mavjud omborlarni boshqarish tizimlari bilan muammosiz birlashtirilishi mumkin, bu esa muammosiz o‘tishni ta'minlaydi[2].

Sozlanishi mumkin bo‘lgan asboblarni paneli va hisobotlar ombor jarayonlarini doimiy takomillashtirish uchun chuqur tahlillarni taqdim etadi.

1. Uzluksiz integratsiya:
 - Kundalik operatsiyalarni buzmasdan IoT qurilmalarini mavjud tizimlar bilan ulang.

➤ Turli xil dasturiy ta'minot va apparat variantlari bilan muvofiqligi amalga oshirishda moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

2. Kengaytirilgan tahlil

➤ Haqiqiy vaqtda ma'lumotlar tahlili strategik qarorlar qabul qilish va jarayonni optimallashtirish uchun qimmatli tushunchalarni taqdim etadi.

➤ Sozlanishi mumkin bo'lgan asboblardan paneli muhim ombor ishlash ko'rsatkichlarini bir qarashda ko'rish imkonini beradi.

3. Kengaytirilgan ma'lumotlar xavfsizligi

➤ Nozik ombor va inventar ma'lumotlarini kiber tahdidlardan himoya qilish uchun mustahkam xavfsizlik protokollarini joriy qiling.

➤ Shifrlash va ko'p faktorli autentifikatsiya ma'lumotlarning yaxlitligi va maxfiylikni ta'minlaydi.

Operatsion xarajatlarning kamayishi, inventarizatsiyaning aniqligi va ish samaradorligining oshishi investitsiyalarning sezilarli daromadlilikiga (ROI) yordam beradi[3].

Haqiqiy vaqtda ma'lumotlar ma'lumotlari proaktiv texnik xizmat ko'rsatish, uskunaning ishlashini optimallashtirish va ishlamay qolish vaqtini kamaytirish imkonini beradi.

1. Xarajatlarni tejash: Energiya iste'moli va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirish.

2. Inventarizatsiyaning aniqligi: Zaxiralarni minimallashtirish va real vaqtda kuzatish orqali haddan tashqari stok holatlari.

3. Operatsion samaradorlik: Jarayonlarni soddalashtirish va resurslarni taqsimlashni yaxshilash.

Ulanish muammolari va ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq muammolar kabi amalga oshirish muammolari bo'lishi mumkin IOTni joylashtirishda eng yaxshi amaliyotlarga rioya qilish orqali hal qilinishi kerak[4].

Sun'iy intellekt va mashinani o'rganish bilan integratsiya samaradorlikni yanada oshiradi va ombor operatsiyalari bo'yicha razvedka.

1. Bashoratli tahlil: Ta'mirlashni taxmin qiling ehtiyojlar, talab shakllari va operatsion tushunchalar proaktiv qarorlar qabul qilish uchun.

2. Avtonom inventarizatsiya - Boshqaruv: Avtomatlashtirilgan inventarizatsiya kuzatish va to'ldirish tizimlari uzluksiz ishlash uchun samaradorlik.


3. AI va mashina - O'rganish: Intellektual tizimlar o'rganishga qodir va optimallashtirish uchun moslashish ombor jarayonlari.

IoT texnologiyalarini muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun har tomonlama baholashni o'tkazish kerak ombor muhitining o'ziga xos ehtiyojlari va muammolari[5].

Xulosa qilib aytganda baholash va rejalashtirishni har tomonlama baholashni o'tkazish omborga qo'yiladigan talablar va potentsial hududlar yaxshilash uchun. Bosqichlar uchun batafsil rejani ishlab chiqing IoT texnologiyalarini joriy etish buzilishlarni minimallashtirish. Ekspert maslahati IoT xizmati provayderlari bilan aloqada bo'ling ishlab chiqishda tasdiqlangan tajriba va ombor echimlarini amalga oshirish. Moslashtirilgan, moslashtirilgan yechimlarni qidiring muayyan ehtiyojlari va muammolari ombor muhitidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Олифер В. Компьютерные сети. Принципы, технологии, протоколы / В. Олифер, Н. Олифер. – СПб.: Питер, 2021. – 1008 с.
2. Рентюк В. Развитие «Интернета вещей»: проблемы и их решения / В. Рентюк // Беспроводные технологии. – 2019. – № 1. – С. 38–44.
3. Inventarizatsiya va uning asoslari. Toshkent. 1999-224 bet.
4. "Inventory Management and Production Planning and Scheduling" - Edward A. Silver, David F. Pike, Rayne Peterson
5. "Inventory Control and Management" - Donald Waters



**ABU MANSUR AL-MOTURIDIYNING BILISH FALSAFASIDA SHAXS
MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISH MASALALARI**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti
matematika va informatika yo 'nalishi mustaqil izlanuvchi talabalari*

**Bo'riyeva Gulmira Nortajiyevna
Qarshiyeva Kumush Abdimurod qizi**

O'ralova Zulayho Salim qizi

Email: gulmiraboriyeva7@gmail.com

kumushqarshiyeva713gmail.com

zulayhoorolova5@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Abu Mansur Moturidiy falsafiy merosining shaxs ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni hamda allomaning fikr-mulohazalarining ilmiy tahlili to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Abu Mansur Moturidiy, moturidiylik ta'limoti, falsafiy me'ros, shaxs ma'naviyati, diniy dunyoqarash.

ABSTRACT

This article provides information on the role of the philosophical heritage of Abu Mansur Moturidi in the development of personal spirituality and the scientific analysis of the views of the scholar. Keywords: Abu Mansur Maturidi, maturidi teachings, philosophical heritage, personal spirituality, religious worldview.

Keywords: Abu Mansur Moturidi, Moturidi teachings, philosophical heritage, personal spirituality, religious worldview.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены сведения о роли философского наследия Абу Мансура Мотуриди в развитии духовности личности и научный анализ взглядов ученого. Ключевые слова: Абу Мансур Матуриди, учение матуриди, философское наследие, духовность личности, религиозное мировоззрение.

Ключевые слова: Абу Мансур Мотуриди, учение Мотуриди, философское наследие, духовность личности, религиозное мировоззрение.

MUHOQAMA VA TAHLILLAR

Abu Mansur Moturidiy shaxs ma'naviyati va unga ta'sir etuvchi omillar hamda ularning diniy-falsafiy jihatlarini bir qancha yo'nalishlarga bo'lib o'rganadi.



Inson erkinligi masalasi. Abu Mansur Moturidiy, eng avvalo, insonlarning xatti-harakatlarini ontologik jihatdan aniq haqiqat sifatida qabul qiladi va bu fikrni asoslashga harakat qiladi. Uning fikricha, har bir inson o‘z harakatlarining haqiqiy egasidir. Insonning o‘z xatti-harakatlarining mutlaq sohibi ekanligi, ham aqlan, ham ruhan erkinligi Qur‘on oyatlari bilan ochiq-oydin ma‘lum qilingandur. Shu haqiqatdan kelib chiqib, Alloh taolo insonlarga o‘zining imkoniyatlari doirasida ma‘lum bir vazifa va mas‘uliyatlarni yuklagan. Buning natijasi o‘laroq, bajarilgan yoki tark etilgan xatti-harakatlar evaziga jazo va ajrlarni marhamat etgan. Inson muayyan harakat va faoliyatni amalga oshirishi uchun unga harakatdan oldin amalda ma‘lum bir kuch va qudrat berilgan. Insonning harakatlari unga berilgan shu kuch- qudrat va uni amalga oshirishga undovchi shaxs irodasining natijasidir. Bu jarayon inson harakatlarining asosi va uning zimmasiga yuklatilgan mas‘uliyatlarining majmuidir. Bular bilan inson ma‘lum bir harakatga yuzlanib, o‘z ixtiyori bilan uni tanlaydi va amalga oshiradi. Bandaning barcha yaxshi yoki yomon amallarini yaratish Alloh taoloning qudrati bilan bo‘ladi. Demak, insonning xatti-harakatlarida ikki jihat bor: insonning roli va Allohning qudrati. Abu Mansur Moturidiy, bu masalada o‘z davriga qadar ilgari surilgan taqdirni inkor etish va majburlash g‘oyasini qabul qilganlarning qarashlarini butkul rad etib, amallar ham insonga, ham Allohga tegishli ekanligini ta‘kidlaydi. Mazkur masalaning yechimi sifatida u yangicha bir fikrni ilgari suradi. Abu Mansur Moturidiyning qarashlariga ko‘ra, ma‘lum bir harakatga murojaat qilish, uni tanlash hamda o‘z xohish va irodasi doirasida bajarish insonning shaxsiy ishi. Har bir narsaning yaratuvchisi bo‘lgan Alloh, insonning harakatini ham yaratuvchisidir. Demak, ijod nuqtai nazaridan harakatga ta‘sir etuvchi kuch Allohga tegishlidir. Boshqacha qilib aytganda, harakat amalga oshirilish jihati bo‘yicha insonga, yaratilish xususiyati bo‘yicha Allohga tegishlidir. Inson ruhiyatidagi bu sheriklik alohida xususiyatlarga ega bo‘lgan hamda mas‘uliyatni bartaraf etmaydigan hamkorlikdir.

Shaxs etikasi tahlili. Narsalarning go‘zalligi yoki xunukligini shuningdek, foydali yoki zarar ekanligini umuman aql tamoyillari bilan tushunish mumkin. Biroq, aql ularni barcha jihatlari va tafsilotlari bilan aniqlay olmaydi. Chuqur izlanish va tafakkurdan so‘ng bilishi yoki payg‘ambarning xabari orqali bilishi mumkin. Shariatning bu boradagi bayonoti ta‘kid va tasdiqdir. Shariat ham biror narsani yaxshiligi uchun buyurib, yomon va zararli bo‘lgani uchun uni harom qiladi. Din bu borada aql bilan birlashgan. Qolaversa, axloqiy tuyg‘u insonga xos bo‘lib, inson tabiatan axloqiy mavjudotdir. Ba‘zi narsalarning go‘zalligi va ba‘zi narsalarning xunukligi tabiatan aqlda aniq namoyon bo‘lganligi sababli, aql ularni idrok etadi, tahlil qiladi, muayyan harakatga undaydi yoki qaytaradi. Masalan, mavjud ne‘matlarga shukr qilishning haqiqati, adolatning go‘zalligi, noshukurlikning

xunukligi, zulm va yolgʻonning chirkin illat ekanligi va xokazo. Faqat aql oxiratda mukofot yoki jazolanadigan halol yoki harom amal qilish huquqiga ega emas, bu hokimiyat Allohnikidir. Demak, aql ilmi oxirat uchun jazo va ajr miqdorini belgilay olmaydi. Din esa amr qilinganlarni bajarganlarga ajr vaʼda qilgan, man etilganlarni esa jazo bilan tahdid qilgan. Abu Mansur Moturidiyning odob-axloq tushunchasida yana bir taʼkidlash lozim boʻlgan jihat shundaki, u amaldan koʻra gʻoya, eʼtiqod va toʻgʻri bilimni birinchi oʻringa qoʻyib, amalni taqliddan koʻra sogʻlom bilimga yoʻnaltirib asoslaydi. Abu Mansur Moturidiyning fikricha, Allohni tanish va uning goʻzal sifatlarini bilish har bir inson uchun axloqiy farzdir. Chunki borliqni va uning yaratuvchisi haqidagi bilimlarni anglashning yagona yoʻli aqldir. Abu Mansur Moturidiy oʻz asarlarida odamlarni oʻz imkoniyatlariga javobgar qilish kabi masala borasida ham koʻplab fikrlar bildirgan. Xususan, allomaning fikrmulohazalariga koʻra, dinda odamlar hech qachon qodir bʼlmagan xatti-harakat uchun javobgar boʻlmaydilar. Islom dinida har qanday xatti-harakat uchun javobgar boʻlishning asosiy sharti shundaki, buyurilgan yoki taʼqiqlangan narsa inson qila oladigan darajada boʻlishi kerak. Shunga koʻra, yuklatiladigan vazifalar odamlarning imkoniyati sigʻdira oladigan va imkoniyati yetmaydigan xatti-harakatlar majmuiga boʻlinadi. Insonni oʻzi bajara olmaydigan ibodat yoki muayyan majburiyatga yoʻllash va natijada ular tomonidan xatti-harakatning lozim darajada bajarilmasligi hamda harakat subyektlarining qoʻlidan kelmaydigan ishlar uchun ogʻirroq jazolash dinning masʼuliyat mantigʻiga mutlaqo ziddir. Alloh taolo insonlarga aql bilan yoki vahiy orqali nimani buyurgan boʻlsa, ularni tushunish uchun imkoniyat eshiklarini ochib qoʻygan. Buni tushuna olmaydigan ilohiy amrga murojaat qilib boʻlmaydi. Bu amrlarning barchasini bilish usullari har xil. Biroq uning yoʻllarini aql va xulosa bilan bilish mumkin. Borliqning yaratilish qoidasiga koʻra, Alloh hech bir harakat yoki holatni bekordan-bekor yaratmagan. Abadiyat qonunlariga muvofiq har bir voqea, hodisa va jarayonlar oʻzining muayyan sabablari asosida sodir boʻladi. Moturidiyning fikricha, olamdagi hech narsa bekorga yaratilmagan. Hamma narsaning sababi, maqsadi va hikmati bor. Shuning uchun ham Alloh taoloning ijodlari borliq qonunlari va aql asoslaridan tashqariga chiqmaydi. U hamma narsani eng yaxshi koʻrinishda va mustahkam tarzda yaratadi. Uning fikricha, hikmatning ikki xili bor: Birinchisi – adolat, ikkinchisi – inoyat. Adolat hamma narsani oʻz oʻrniga qoʻyadi. Xudoning inoyati esa, cheksiz va oxiri yoʻq marhamatdir. “Imom Moturidiyning buyukliklari, siyratlarini anglashdagi eng katta manba – u kishining asarlaridir. Bu zotning ixlos-u taqvolari, parhezkorliklari, sogʻlom aql va eʼtiqoddagi darajalari, aqliy yetukliklari, fikriy ilgʻorliklarini u kishining asarlarini oʻrgangan odam darhol fahmlab oladi.”

XULOSA

Barcha davrlarda ham din insonlarni ma'naviy birlashuvini, maqsad-muddaolari mushtarakligini, orzu-umidlar yakdilligini ta'minlab beruvchi ruhiy vosita hisoblangan. Mana shu vosita davrlar o'tsada, qanchadan-qancha siyosiy to'qnashuvlar bo'lsa-da, o'zining ruhiy ta'sir etish kuchini yo'qotmagan. "Abu Mansur Moturidiy nafaqat qardosh o'zbek xalqining, balki ummat rivojiga, muqaddas islomning gumanistik va ratsional asoslarini mustahkamlashga salmoqli xissa qo'shgan barcha turkiy xalqlarning faxridir". Darhaqiqat, buyuk allomaning falsafiy merosi, butun ilmiy faoliyati va mehnatlarining samarasi bugungi kunda ham jamiyat va unda yashovchi insonlarning ma'naviy qiyofasini yaxshilashga, ruhiy barkamollikka va yuksak falsafiy tafakkur egasi bo'lishiga katta yordam beradi. Bugungi globallashuv sharoitida Abu Mansur Moturidiyning shaxsiyatini, falsafiy merosini hamda moturidiylik ta'limotini o'rganish dinimiz balki butun borliq, insoniyat to'g'risida noto'g'ri g'oyalarni yuzaga keltiruvchi turli mafkuraviy tahdidlar, aqidaparastlik va tub dunyoqarashlarga qarshi mafkuraviy immunitet vazifasini o'taydi. Abu Mansur Moturidiyning falsafiy merosi yoshlar ongining turli ko'rinishdagi buzg'unchi g'oyalar bilan zaharlanishiga qarshi turishda hamda ularga qarshi kurashishda o'ta dolzarb va muhim manba hisoblanadi. Fikrimiz yakunida shuni aytib o'tmoqchimizki, keyingi yillarda yurtimizda muqaddas islom dini rivojiga o'zining teran falsafiy qarashlari bilan beqiyos xissa qo'shgan ulug' allomalarning hayoti va faoliyati, ularning ma'naviy merosini o'rganishga qaratilgan alohida e'tibor kuchayib bormoqda. Shu tufayli buyuk mutakallim Abu Mansur Moturidiy va ul zot asos solgan moturidiylik ta'limotini keng tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, bugungi global jarayonda islom dinini to'g'ri anglash va talqin qilish masalasi muhim ahamiyatga ega. Bu borada moturidiylik ta'limotining o'rni naqadar beqiyos ekanligi, allomaning ilmiy-ma'naviy, boy merosi davlat va jamiyat taraqqiyoti, insoniylik tamoyillariga asoslanganligi qator horijiy va mahalliy olimlar tomonidan ham yuksak e'tirof etilmoqda. Shunday ekan, bu ulug' allomaning hayoti, ilmiy faoliyati va ilmiy asarlarida ilgari surilgan g'oya va mafkuralarni ta'lim tizimiga to'g'ri tadbiiq etib borsak, shuningdek, xalqimiz ongiga oson va tushunarli tarzda yetkazib bersak, o'ylaymizki, kelajakda Abu Mansur Moturidiyning falsafiy merosini o'rganish bo'yicha yetuk mutaxassislarni yetishib chiqishiga zamin tayyorlagan bo'lamiz.



REFERENCES

- <http://president.uz> 2020 yil 24-yanvar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”, T.: “Ma’naviyat” nashriyoti 2008 y. 39-bet
Muhammadiyev F. “Mutafakkirlar”, “Movarounnaxr” nashriyoti T; 2011, 45b
Kitabu't-Tevhid, 228-229. Ayrıca geniş bilgi için bkz. Yazıcıoğlu, M. Sait, Mâtüridî ve Neseî'ye Göre İnsan Hürriyeti Kavramı, Ankara 1988, 28-34.



«CONFERENCE ON UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH 2023»
VOLUME-2, ISSUE-4 (30-April)
MUNDARIJA

1	BALEFUL EFFECTS OF THE COMMERCIAL BIRTH CONTROL PILLS AND FOCUS ON FRONTIER HERBAL CONTRACEPTIVES DEVOID OF SIDE EFFECTS EFFECTS OF PILLS CONTRARY HERBAL Sonali Bhakta, Shonkor Kumar Das	5-11
2	PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV JARAYONINING ICHKI NAZORATINI TASHKIL QILISH Qodirov Zikrullo Mengto'rayevich	12-15
3	YUQORI SINF O'QUVCHILARINI GEOMETRIK MASALALAR ORQALI SHAXSIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH Asrarov Jurabek Akramovich	16-17
4	SHUKUR XOLMIRZAYEV ASARLARINING PSIXOLOGIK TAHLILI Rashidova Zamira Sharofovna	18-20
5	SHUKUR XOLMIRZAYEV ASARLARIDA INSON KAMOLITIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR Abdiqahhorov Davlatbek Muzaffar o'g'li	21-26
6	DEVELOPMENT OF A NUMERICAL ALGORITHM BASED ON THE FINITE ELEMENT METHOD FOR STUDYING FLOWS IN CHANNELS Abdukhamidov S.K., Abdukhamidova N.A., Abdukhamidova M.Q.	27-30
7	KOSMETIKA VOSITALARINING KIMYOVIY TARKIBI VA ODAM ORGANIZMIGA TA'SIRI Odilova Mohizar	31-33
8	THE VERB. TYPES OF VERBS Xoliqova Nargiza Mo'sajon qizi	34-42
9	THE NATURE OF SUPRASEGMENTAL UNITS OF PHONETICS IN ENGLISH Ikromova Gulasal Paxlovan qizi	43-50
10	FUNCTION AND STRESS Dilshoda Maxsimjonova Abdumalik qizi	51-53
11	ДАВЛАТ ТАДБИРКОРЛИГИНИНГ АҲАМИЯТИ Файзиёва Нилуфар Шухрат қизи	54-56
12	O'QUV ISHLAR BO'YICHA O'RINBOSARLARINING MEHNATINI TASHKIL ETISHNING MOHIYATI, MAQSADLARI VA VAZIFALARI Abduraxmonov Yodgorbek Abdulaziz o'g'li	57-58

13	TARIXIY ISTIQBOLDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY MUAMMOLARI Karimova Go'zal Ibragimovna	59-60
14	ENERGETIK ICHIMLIKLAR QUUVAT EMAS, KULFAT MANBAI. Nazarova.N.I, Akramova.M.B, Toshmatova.G.O	61-64
15	BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING INNOVATSION USULLARI Omonova Sitara, Qayumova Mohinur Murodullayevna	65-69
16	MAKTAB YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI O'QITISH METODIKASI Toshtemirova Mohinur Akram qizi, Qayumova Mohinur Murodullayevna	70-73
17	BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING INNOVATSION USULLARI Jaylovova Dildora, Turdialiyeva Shahnoza	74-76
18	MOBIL INVENTARIZATSIYA Shukrullayev Shamsiddin Po'latjon o'g'li	77-79
19	PEDAGOGIK TA'LIM YO'NALISHLARIDA XORIJ TILLARINI O'QITISH AHAMIYATI Qayumova Mohinur Murodullayevna	80-83
20	INGLIZ TILINI BOSHLANG'ICH SINFLAR KESIMIDA O'QITISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH To'xtamurodova Muxlisa, Qayumova Mohinur Murodullayevna	84-87
21	PEDAGOGIK TA'LIM YO'NALISHLARIDA XORIJIY TILLARINI O'QITISH AHAMIYATI Jumayeva Sevinch Bunyod qizi, Mohinur Qayumova Murodullayevna	88-91
22	PEDAGOGIK TA'LIM YO'NALISHLARIDA XORIJ TILLARINI O'QITISH AHAMIYATI Yo'ldashyeva Maftuna	92-95
23	INGLIZ TILINI BOSHLANG'ICH SINFLAR KESIMIDA O'QITISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH Xudoyqulova Nilufar Rahimqul qizi, Mohinur Qayumova Murodullayevna	96-99
24	MAKTABGACHA BO'LGAN YOSHDAGI BOLALARDA CHET TILLARINI O'QITISHNING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI Ismayilova Gulshoda	100-104

25	MAKTABGACHA BO'LGAN YOSHDAGI BOLALARDA CHET TILLARINI O'QITISHNING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI Nomozova Muharram Boynazar qizi	105-107
26	BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING INNOVATSION USULLARI To'rayeva Oqila, Turdialiyeva Shahnoza	108-111
27	PEDAGOGIK TA'LIM YO'NALISHLARIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING AHAMIYATI Naimova Diyoraxon, Turdialiyeva Shahnoza	112-117
28	MAKTABGACHA BO'LGAN YOSHDAGI BOLALARDA CHET TILLARINI O'QITISHNING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI Musayeva Iroda, Mohinur Qayumova Murodullayevna	118-121
29	MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI O'QITISH METODIKASI Zamira Asomiddinova	122-124
30	O'ZBEK ALLOMASI ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARIDA BORLIQ MASALASI Xursanova Mo'tabarxon Valijon qizi, Xurramova Mashxura Ro'zimurod qizi, Xolniyazova Ruxshona Nortosh qizi	125-128
31	TARKIBLI DISKRETLOVCHI BARABANCHA TISHLI GARNITURASI TEBRANISHLARINI UNING PARAMERTLARIGA BOG'LIQLIGI TAHLILI Urakov Nuriddin Abramatovich, Jumanazarova Sitara Shonazar qizi	129-132
32	INGLIZ TILINI BOSHLANG'ICH SINFLAR KESIMIDA O'QITISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH Shonazarova Go'zaloy Rabbil qizi, Mohinur Qayumova Murodullayevna	133-137
33	OMBORXONALARDA IOT TEXNALOGIYALARINI QO'LLASH VA MOBILE KONTROL Po'latov Ziyohiddin Axunjon o'g'li	138-140
34	ABU MANSUR AL-MOTURIDIYNING BILISH FALSAFASIDA SHAXS MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISH MASALALARI Bo'riyeva Gulmira Nortajiyevna, Qarshiyeva Kumush Abdimurod qizi, O'ralova Zulayho Salim qizi	141-145
	MUNDARIJA	146-148